

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK

DJUMANIYAZOV UMRBEK MAXSUDOVICH

O‘ZBEK DOSTONCHILIK SAN‘ATINING YOSHLAR
TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

5A111101 – “Musiq ta’limi va san’at” mutaxassisligi bo‘yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

S. Xudayberganov

prof. S. Xudayberganov

“Musiq ta’limi” kafedrasini mudiri:

B. Raximov

katta o‘qituvchi B. Raximov



Urganch-2020

Mundarija

	KIRISH	3-6
I BOB.	DOSTON IJROCHILIGI VA UNING XUSUSIYATLARI	7
1.1.	Dostonchilik san’ati va uning rivojlanish jarayonlari	7-13
1.2.	O‘zbekiston hududidagi dostonchilik yo‘nalishlari va maktablari	14-20
1.3	Doston nomalari asosida bastalangan ashula va cholg‘u musiqalari	21-24
II BOB.	DOSTONCHILIK SAN’ATI VOSITASIDA O‘QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASHNING MAZMUNI, SHAKLI, VOSITA VA METODLARI	25
2.1.	Dostonlar - avlodlarni kamolotga yetaklovchi tarbiya manbai	25-31
2.2.	Dostonchilik san’atining tarbiyaviy ahamiyati	32-37
2.3	Dostonlardagi ijobiy va salbiy fazilatlar	38-64
III BOB	O‘ZBEK DOSTONCHILIK SAN’ATINI O‘RGANISHGA YO‘NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI	65
3.1	Pedagogik eksperiment boshida dostonchilik san’ati orqali o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarning shakllanganlik darajasini aniqlash	65-67
3.2	Pedagogik eksperiment yakunidagi tajriba – sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	68-72
	UMUMIY XULOSALAR	73-74
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	75-76

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil Respublikamizning barcha sohalaridagi rivojlanishi jahonning ilg'or mamlakatlarida qo'llanilayotgan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish ko'lami va sifatiga ham bog'liq. Bu meroslar tizimida xalq dostonlari ham o'z o'rnini va nufuziga ega. Zero millatning, jamiyatning milliy mafkurasini shakllantiruvchi tarbiyaviy quroldir. O'tgan davr va hozirgi zamon o'zbek xalq dostonlarini tahlil qilar ekanmiz, ularni qudratli tarbiya vositalaridan biri deb ta'kidlashga haqlimiz. Ulardagi ma'naviy va estetik g'oyalar o'quvchi-yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, do'stlik, halollik, vafodorlik, sadoqat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga ijobiy ta'sir etib badiiy didini o'stiradi. Xalq dostonlarining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligining yana bir asosiy jihati uning matnida o'z ifodasini topadi.

Inson ma'naviy komolotida dostonlarning o'rnini beqiyos. Shunday ekan o'quvchilarga musiqiy bilim, ko'nikma, estetik didini, tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni his qilish va hayotni go'zal tashkil qila olishi uchun ta'lim muassasalarida musiqa ta'limini o'rgatishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi, 27-iyundagi "Nurli navolar" xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi, hamda Prezidentimizning 2018-yil 1-noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" gi qarorlari nafaqat baxshilarni, balki barcha musiqa iflosmandlarini xursand qildi. Bu hujjatlar milliy musiqa san'atimiz tarixini chuqur o'rganish, targ'ib qilish, asl san'atni sohtasidan ajrata olish, baxshichilik va dostonchilik san'atining qadimiy namunalarini asrash va rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlash, yoshlar qalbida bebaho merosimizga bo'lgan xurmatni yanada kuchaytiradi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Jumladan, O'zbekiston baxshilari nomli kitob-albom nashrga

tayyorlanib, o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etildi. Mazkur kitobga atoqli namoyandalar – Ergash Jumambulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ismoil Nazar o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Umir shoir Safar o'g'li, Bola baxshi – Qurbonnazir Abdullayev, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Qodir baxshi Rahimov va mustaqillik yillarida baxshichilik san'atini targ'ib qilib, xalqimiz orasida e'tibor qozongan 23 nafar O'zbekiston baxshilari va yosh baxshilarning ijodiy faoliyati kiritilgan. Qariyb 240 nafar baxshining ro'yxati shakllantirildi, televideniya va radio arxivida saqlanayotgan baxshilar ijrosidagi dostonlarni magnit tasmlardan zamonaviy formatdagi CD va DVD disklarga o'tkazish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga qadar 20 nafar baxshi ijrosidagi dostonlarning audio disklari tayyorlandi va 10 ta doston qog'ozga tushurilib kitob holiga keltirildi. 2019-yil aprel oyida Termiz shahrida "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivali bo'lib o'tdi. Festivalda dunyoning 74 ta davlatidan 160 dan ortiq vakillar ishtirok etishdi. Festival doirasida turli konsert dasturlari va ilmiy-amaliy konferensiya ham bo'lib o'tdi.

O'quvchi-yoshlar tarbiyasida dostonlarning ta'siri kuchli ekanligi bugungi kunda o'z isbotini topdi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim tizimida ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'quvchilarga singdirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunga qadar xalq dostonlarini turli olim va tadqiqotchilar pedagogik, filologik, falsafiy va san'atshunoslik tomonidan o'rganib, izlanishlar olib borganlar. Ammo, umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslari va Bolalar musiqa va san'at maktablarining baxshichilik va dostonchilik sinflarida o'quvchilarga dostonlarning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rnini pedagogik jihatdan tadqiq etilmagan. Vaholangki umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslari va Bolalar musiqa va san'at maktablarining baxshichilik va dostonchilik sinflari fan dasturlarida o'quvchilarga dostonlardan namunalar eshittirish, parchalar o'rgatish belgilangan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Bolalar musiqa va san'at maktablarining Baxshichilik va dostonchilik mutaxassislik sinfi darslarida o'quvchilarga o'zbek

dostonchilik san'atini o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni. O'zbek dostonchilik san'atini o'rganishning mazmuni, shakl va metodlari.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbek dostonchilik san'atining yoshlar tarbiyasida tutgan o'rnini asoslash va uni amalga oshirishga metodik tayyorlash.

Tadqiqotning vazifalari.

1. Pedagogika va musiqaga oid adabiyotlarda o'zbek dostonlarini o'rganish orqali ilmiy-nazariy ma'lumotlarni taxlil qilish.

2. O'quvchi yoshlarga o'zbek dostonlarining tarbiyaviy ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash.

3. O'quvchi-yoshlarga o'zbek dostonlarini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish.

4. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'quvchilarga maktab musiqa darslarida o'zbek dostonlarini o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning ta'sirchan shakllari, usul va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida o'quvchi-yoshlarga o'zbek dostonlari asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish.

6. Umumiy o'rta ta'lim maktabi va Bolalar musiqa va san'at maktabining bo'lajak musiqa o'qituvchilariga musiqa darslarida o'zbek dostonlarini o'rgatishning samaradorligini oshirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ta'lim-tarbiyaga oid farmonlari, dasturiy-me'yoriy hujjatlar, Bolalar musiqa va san'at maktablari Baxshichilik va dostonchilik, umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, shuningdek, pedagogika, san'atshunoslik, dostonchilik san'ati tarixiga oid adabiyotlarga, materiallarga tayanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Mavzuga oid ilmiy, uslubiy adabiyotlarni o'rganish, nazariy jihatdan tahlil qilish, Bolalar musiqa va san'at maktablari Baxshichilik va dostonchilik, umumiy o'rta ta'lim

maktablarining musiqa darsini o'tishga oid dasturiy, me'yoriy hujjatlarni o'rganish, ilg'or tajribali o'qituvchilar bilan suhbat, savol-javob o'tkazish, ish mazmunini yoritishda qiyosiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, tajriba sinov metodlaridan foydalanish.

Tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki o'qituvchilar dostonlarni o'quvchi-yoshlarga o'rgatish jarayoni yangi nazariy qarashlar metodlar bilan boyitiladi, yoshlar tarbiyasida o'zbek dostonchilik san'atining tutgan o'rni pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalaridan maktab va bolalar musiqa san'at maktabi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali manbaa bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishi uch bob, sakkiz paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 76 sahifani tashkil etadi.

I BOB. DOSTON IJROCHILIGI VA UNING XUSUSIYATLARI

1.1. Dostonchilik san'ati va uning rivojlanish jarayonlari

Qadimgi xalq afsonalari, rivoyatlar, dostonlar va hikoyalar ijtimoiy jamiyatning tarixga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan va kishilar ongini shakllantirgan desak xato bo'lmas. Har bir afsona zamirida turli zamonlar va turfa xil urug' hamda qabilalarning qiyofasi (obrazi)ni uchratish mumkin. Bunda turli urf-odatlar, diniy, axloqiy, mahalliy udumlar, tarixiy voqealar, bahodirlik ertaklari o'z ichida mazmun-mohiyati bilan yuqoridagi jihatlarni birlashtirgan (*asotir*) afsona - *mif*, singari murakkab majmua bo'lib, ular tafakkur va tasavvur asosida yaratilgan va so'z orqali kishilar ongiga yetkazilgan. Bunday asarlar doston deb yuritilgan. Doston so'zi *forscha* qo'lning davomi, barmoq o'rni, parda degan tushunchalarni anglatadi. Istilohiy ma'noda esa afsona, rivoyat, ertak, hikoya, poema degan ma'nolarni bildiradi.

Dostonlarning tub ildizlari va shu jumladan musiqiy ibtidosi *Qom*, *parixon*, (*shaman*)*likka* borib taqalishi olimlarimiz tomonidan e'tirof etib kelingan. «Shaman – tunguscha so'z bo'lib - «ruh - pari»larga ishonuvga asoslangan qabila dini. Bunda shaman boshqaruvidagi ruhlar orqali unga sig'muvchilarning murodi hosil bo'ladi deb ishoniladi. Qom, parixon esa inson bilan ibtido o'rtasidagi bog'lovchi-vositachi, qora kuch (jin) larni haydovchi vazifasini bajargan va tobora Shaman, qom va parixonlar san'ati bemorni davolovchi va afsonalar, dostonlar kuylovchi ijrochi sifatida shakllangan. Turk xalqlarida doston aytuvchilarni qadimda **O'zan** (o'zan, o'zmag-o'zib ketmak, oldinda boruvchi, aqilli shoir) deb yuritilgan. **Jirov** tushunchasini Mahmud Qoshg'ariy ta'biricha jirov – yirg'ov, she'r to'quvchi sozanda, dono oqsoqol deb ta'riflaydi. Jirovlar aytadigan eng sevimli janr bu to'lg'ovdir (to'lg'ov – o'ylanish, fikr yuritish). **Oshiq**, ba'zi turkshunos (A.Nabiev, V.Radlov, M.Taxmasib) olimlarning fikriga ko'ra “Oshiq” va “Ashula” (Oshila - yedir, hazm qildir) so'zlarining asosiy o'zagi bir bo'lib, qadimgi turkiy «Osh» oshilamoq, hazm qildirmoq, (o'z fikrini, maqsadini, xoxishini), singdirmoq, ruhiyatini to'yintirmoq degan ma'nolarni anglatadi. **Baxshi** – mo'g'ulcha va

buryatcha baxsha, bag‘sha - o‘qituvchi, Sanskritcha qalandar, darvesh, ustoz, ma‘rifatchi degan ma‘nolarni bildiradi.

Professor A.Fitrat ta‘rificha: - “Turk musiqasining bizda qolg‘on eng burungi so‘zlari baxshi, o‘zan, qo‘biz so‘zlaridir. Baxshi so‘zining burungi ma‘nosi el shoiri, cholg‘uvchisidir. El orasinda qo‘biz yo do‘mbira chalib dostonlar o‘qub yurgan kishilar shoir, cholg‘uchilar bor, biz shularg‘a baxshi deymiz. Holbuki Navoiy zamonida bu so‘z uyg‘urcha yozg‘on kotib ma‘nosida ishlatilar edi. Ko‘pirlizodaning «Zich ilxoni» dan ko‘chirmasiga ko‘ra “Baxshilar har oyda uch kun parhez tutub ibodat qiladilar va belgili yemaklar yeyarlar emish”. Demak bular bir turli folchi avliyolar ma‘nosida ishlatilgan bo‘ladir”.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodiyotidagi dostonlar ijrochilik an‘analari jihatidan ikki turga bo‘linadi: a) «ichki ovoz» bilan (Alpomishni aytish uslubidagi) she‘riy shaklda qo‘biz yoki do‘mbira jo‘rligida kuylash. Bunday kuylash uslubining yanada murakkabroq turi Oltoy, Boshqird, Tuva va boshqa turk xalqlarining eng qadimgi doston ijrochiligida kuzatiladi va «O‘zlov» (ovozlov ya‘ni ovoz o‘ynatish), boshqirdlarda «tomoq quray» (qurayga o‘xshatib tomoqdan ovoz chiqarish) deb nomlanadi. Bunday kuylash uslubida ijrochining bo‘g‘izi va burun rezanatorlari orqali bir vaqtning o‘zida ikki xil ovoz hosil qilinadi. Bu ovozlarning biri kuy yo‘nalishini ifodalasa ikkinchisi davomli cho‘zilib turuvchi pastki tovush vazifasini bajaradi. Kuylashning bunday turiga erishish uchun juda uzoq vaqt ijrochilik nafasini rivojlantirish ustida mashq qilish, ovoz boylamlari, tomoq, burun, tanglay og‘iz bo‘shlig‘i va ko‘krak rezonatorlarini mohirona ishlata bilish katta ahamiyatga ega va bunday kuylash san‘ati o‘ziga yarasha mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Ko‘pchilik olimlar o‘zlovni qadimiy negizlari shamanlar marosimidan kelib chiqqanligini, tabiatdagi barcha tovushlar, qushlarning sayrashi, turli jonzotlarning ovoz chiqarishi inson ruhiga singib, uning ovozida umumlashib o‘z aksini topganligini natijasi deb ta‘riflashadi. Ya‘ni shamanlar inson ovozidan eng mukammal cholg‘u asbobi sifatida foydalanganlar desa bo‘ladi. Janubiy

O‘zbekiston xususan, Qashqadaryo-Surxandaryo va Samarqand baxshi-shoirilarining “ichki ovoz-sulligi” uslubda doston aytishi, Chovdir turkmanlarining “alqim sas”, qadimgi jirovlarning bo‘g‘iq - yopiq ovozda kuylash uslublarining tub negizlari qadimiy o‘zlov shaklida aytish bilan umumiylik kasb etadi desak xato qilmaymiz. b) ishqiy ta’rifdagi (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud” va boshqa) ya’ni nasriy matni hikoya tarzida va she’riy matni qo‘shiq shaklida ochiq ovozda ko‘pincha dutor (keyingi paytlarda tor va ansambl) jo‘rligida ijro qilinadigan turlaridir. So‘nggi ko‘rinishi badiiy jihatdan barkamol, ma’lum she’riy - musiqiy yo‘l sifatida gavdalangan va bir-biridan ajralib turadigan shaklan tugal qo‘shiq-nomalarni tashkil qiladi. U Xorazm dostonchiligida asosiy o‘rin tutadi.

Dostonlarni mavzu bo‘yicha shartli ravishda bahodirlik - qahramonlik, tarixiy, diniy, ishqiy va axloqiy, tarbiyaviy (didaktik) turlarga tasniflash mumkin. Shartliligi shundaki, ma’lum bir doston muayyan tarixiy davrni, qaxramon qiyofasini, uning bahodirlik yurishlari, ishqiy sarguzashtlari va boshqa jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi mumkin. Dostonlarning bahodirlik va qahramonlik turlariga, jumladan Shiroq, To‘maris va Zarina singari fidokorlarning botirligi, jasorati to‘g‘risidagi afsona va rivoyatlar, “Alpomish”, “Yodgor”, “Go‘ro‘g‘li”, “Sohibqiron” va boshqa dostonlar kiradi. Tarixiy dostonlar ma’lum bir davr va yirik shaxs hayoti bilan bog‘liq tarixiy ahamiyatga molik voqealar asosida yaratilgan. Bularga “Iskandarnoma”, “Shayboniyxon”, “Shoh Mashrab” va boshqalar kiradi. Diniy mavzudagi “Me’roj”, “Kiyiknoma”, “Amir Hamza”, “Ibrohim Adham”, “Qul Xo‘ja Ahmad” va boshqa dostonlar. Ishqiy mazmundagi dostonlar son jihatidan salmoqli qismni tashkil qilib, oshiqning ishqiy mubolag‘ali sarguzashtlari, ertaknamo afsona va rivoyatlar yordamida tasvirlanadi. Bular: “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Alband” va boshqalar. Didaktik dostonlarda muayyan tarixiy davrdagi odob-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan uzviy bog‘langan axloqiy-tarbiyaviy voqealar aks ettiriladi. Bular: “Avazxon”, “Yusuf va Ahmad” va boshqa dostonlar.

Doston musiqasining tarixiy ildizlari maqomlardan farqli o'laroq shahardan (ayniqsa saroydan) tashqarida, tog'li, tog' oldi va cho'l zonalarida istiqomat qiluvchi ko'pincha chorvador ko'chmanchi va o'troq xalqlar tabiatiga xosdir. Uning tub negizida qadimgi shamanlik marosimlarining ilk ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularni tobora rivojlanishi va ayniqsa so'z salmog'ini ko'payishi, ohanglardagi tovush ko'lamining kengayishi natijasida asotir (mif), afsona, qissa, doston va ularning nomalari kelib chiqqanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, doston she'riyati xalq og'zaki ijodiyotining boshqa namunalari kabi asosan barmoq vazniga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham uning kuy-nomalari xuddi she'rlariga o'xshab oddiy, ixcham va xalqchildir.

Bo'g'izdan kuylash (ichki ovoz) san'atiga hozirgi davrda xalqaro miqyosda katta e'tibor qaratilmoqda. 2001-yil Monreal shahrida bo'g'iz qo'shiqchiligi festivali bo'lib o'tdi. 2003-yili "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida bo'g'izdan "o'g'izlov" shaklida kuylovchi Rossiyaning Tuva o'lkasidan kelgan "Uranxoy" ansambli san'atkorlari festivalning oliy mukofotiga sazovor bo'ldilar. Bunday festivallar endilikda dunyoning turli burchaklarida tez-tez o'tkazilib turilmoqda. Bu ajdodlarimiz ijrochilik san'atiga qiziqish tobora ortib borayotganligining dalilidir.

Dastlab Samarqandning tog'li hududlari, Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari ovoz chiqarish uslublari haqida gapirib o'tmoqchimiz. Bu borada musiqashunos olimlar ko'p izlanishlar olib borishgan. Shunday ovoz chiqarish uslubiga yaqin xalqlar madaniyati haqida ko'plab dissertatsiyalar va kitoblar yozilgan. Bu borada Tuva, Nenets va Mo'g'ul xalqlarining bo'g'izdan kuylash san'atiga oid manbalardan ma'lumotlar keltiramiz. Dastlab Tuva san'ati bilan tanishgan, ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan taniqli etnograf Pyotr Sergeevich Ostrovskiyning izlanishlari natijasiga tayanib, shuni aytish mumkinki, bo'g'izdan kuylashni tualiklarning o'zi "xorekteer" deb atashadi. Uning yozishicha "xomeyler kiji" ya'ni, bo'g'izdan kuylagan xonandalar san'ati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'sha yerlik xonanda Grumm-Grijimaylning aytishicha Tuva xonandalik san'ati 3 xil ko'rinishda bo'lib, birinchisi, so'zli,

ya'ni, she'riy matn bilan kuylanadigan qo'shiqlar. Ikkinchisi, so'zsiz ya'ni, matnsiz qo'shiqlar. Bu ovoz ohanglariga cholg'u asbobi jo'r bo'ladi. Uchinchisi, dastlabki ikki xil qo'shiqlarning matnli va matnsiz ijrolaridir. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qaysi tilda unli tovushlar ko'p uchrasa o'sha tilda xonish qilish, kuylash osonroq kechadi. Masalan: o'zbek tilini olaylik, har bir unli tovushga bittadan uzoq borsa, birga bir yarimta undosh harf to'g'ri keladi. Tuva, Mo'g'ul va Nenets xalqlarida esa aksincha, undosh tovushlarning ko'pligi va unli harflarning juda minimal darajada ishlatilishi kuylashni murakkablashtiradi. Shuning uchun bu xalqlarda matnli qo'shiqlardan ko'ra matnsiz qo'shiqlar rasm bo'lgan. Bulardan tashqari ularda faqat "u" yoki "o'" harfi bilan bir asarni to'la to'kis ijro etishadi.

Tuvaliklarning xonishlarida she'riy matndan ko'ra kuy muhimdir. Bu ohanglarning barchasi bo'g'izda hosil bo'lgan ovoz orqali ifoda etilishi esa o'sha yerlik aholining tabiatidagi o'zgarishlar, ya'ni, yomg'ir chaqirish, muzlarni eritish kabi aqidalarga, shamanlik san'ati va davolash uchun ham qo'llanilganligi manbaalarda aytib o'tilgan.

Nenets xalqlari san'atini 2003-yili Samarqandda o'tkazilgan "Sharq taronalari" xalqaro festivalida tinglash sharafiga barchamiz muvaffaq bo'lganmiz. Ular hosil qilgan ovozlar betakrorligi va g'ayrioddiylikiga guvoh bo'ldik. Jurnalistlarga bergan intervyusida "Biz ijro etgan asarimizda, bahorni, undagi tabiiy o'zgarishlarni va o'lkamizga uzoq yurtlardan uchib kelgan qushlar sayrashini o'xshatishga harakat qildik. Biz ovozimizda xosil qilgan tovushlar esa ota-bobolarimizdan meros qolgan ovoz chiqarish uslublardandir" degan edilar.

O'zbekistonning janubiy maktab baxshilari, ya'ni, Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqandning Nurota maktabi namoyondalari dostonlarni aytishda ovozini bo'g'iq holda chiqarishi bilan ajralib turadi. Bunday uslub "sulligi" deb atalib, asosan eshituvchining e'tiborini jalb etish uchun qo'llaniladi. Bu baxshilar eshituvchilarni qanday jalb etadi? Faraz qiling oddiy ochiq ovozda kuylayotgan Xorazm baxshisini doston mazmuni uchun va voqealarni jo'shib gapirib bergani uchun maroq bilan tinglashadi. Janubiy

O‘zbekiston baxshichilik maktabi namoyondalarini tinglaganda esa eshituvchini nafaqat dostonidagi musiqiy ohang, balki undagi nutqiy so‘zlar ham shu ovozda aytilgani uchun eshituvchini boshqa narsalarga chalg‘ishiga imkon bermaydi. Buning qadimiyligini shu yerdan bilishimiz mumkinki, hatto keng omma uchun mo‘ljallanmagan bu ovoz chiqarish maktabi tor doiradagi eshituvchilarga xosdir.

Baxshilar hosil qiladigan ovoz uslubi “sulligi” deb ataladi. Bu borada musiqashunoslar ko‘plab izlanishlar olib borishgan. Ma’lum bo‘lishicha, bu uslub qadimda “sunnigi” deb ham atalgan.

Bir guruh mutaxassislar “sunniiy” deb nomlangan bu ovoz chiqarish uslubi bo‘g‘izdan, sun‘iy ravishda chiqarilayotgani uchun, ya’ni, ochiq tabiiy emasligiga urg‘u berishmoqda. Forsiy lug‘atlarda esa bu atamaning tarjimasi yo‘q. Shuni aytish joizki, baxshichilik, dostonchilik juda qadimiy sanaladi, hatto Avestogacha rivojlangan hamda san‘at darajasida bo‘lgan.

O‘zbekistonning janubiy vohasi, ya’ni Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqandning Nurota maktabi baxshilari aynan kekirdakni qimirlatmay bo‘g‘izlovni amalga oshirishadi, sadolanishi ham nisbatan qo‘polroq eshitilib, ovoz kuchi ortadi. Bunda asosan ko‘krak va tomoq rezonatorlari ko‘proq ishlaydi. Bosh rezonatorlardan tanglay, xalqum, lunj va burun bo‘shliqlari ovozni tashqariga yo‘naltirishda yordam beradi. Shuning uchun ham obertonlar ko‘lami kengayadi va ovoz ko‘lami do‘mbira tovushiga tenglashtiriladi.

Qoraqalpog‘iston jirovlari esa iyagi pastga tushirib, kekirdakni old tomondan siqish orqali tovush xosil qilishadi. Bunda kekirdak jismoniy siqilib, ovoz paylaridan taralayotgan tovush havo bilan qo‘shilib chiqadi. Bu tovush juda mayin bo‘lib, kamonli qo‘biz asbobi ovoziga o‘xshatiladi. Ma’lumki, qo‘biz asbobi kamonli bo‘lganligi uchun mayin bo‘ladi. Umuman kamonli musiqiy sozlarning tovushi mayin, muloyim va musiqa tili bilan aytganda glitsiando, ligato kabi muloyim musiqiy ko‘rinishlarni amalga oshirishga moyil bo‘ladi. Qo‘biz musiqiy asbobi esa otning yolidan bo‘lganligi uchun uning tovushi past ya’ni, kichik va birinchi oktava oralig‘idagi tovushlar ko‘lamiga ega bo‘lganligi hamda xirillagan, g‘ijjiliagan saslarga boydir. Bunda jirov va

qo‘biz ovozlari bir–biriga mutanosib yangraydi. Jirovlar ovozlari O‘zbekistonning janubiy maktab baxshilari kabi chiqaradilar ammo jirovlar mayinlikka intilib, tovush xosil qilganliklari uchun ularning ovozlari nisbatan kuchsizroq bo‘ladi.

Hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri bu ma’naviy merosni qayta tiklash va hayotga tadbiq etishdir. Bu masalaga nafaqat soha mutahassislari balki boshqa soha vakillari ham o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Jumladan olimlar, jurnalistlar, musiqashunoslar dostonchilik va milliy merosimiz safidan joy oluvchi barcha san’atlarni o‘rganish, saqlab qolish va xalqimizga targ‘ibot – tashviqot ishlari bilan shug‘ullanmoqdalar. “Navro‘z” va “Mustaqillik” bayramlarida namoyish etilayotgan konsertlardan milliy san’atimiz namunalari o‘rin olayotgani fikrimizning dalilidir.

1.2 O‘zbekiston hududidagi dostonchilik yo‘nalishlari va maktablari.

O‘zbekiston hududida turli dostonchilik yo‘nalishlari va maktablari mavjud bo‘lib, ularning o‘ziga xos adabiy – badiiy yo‘li, ijrochilik uslubi, repertuar birligi, ijodiy tamoyillari, kuy nomalarining hajmi va miqdori, cholg‘ular qo‘llanilishi va jo‘rligi, kuylash yo‘llari bilan bir – biridan farq qiladi. Hozirgi davrda o‘zbek dostonchiligida Samarqand – Bulung‘ur, Qo‘rg‘on qishloq, Qashqadaryo – Shahrisabz, Qamay, Surxon – Sherobod, o‘zbek – laqay, Xorazm eroniy va shirvoniy kabi dostonchilik maktablari va baxshilik markazlari aniqlangan «Bulung‘ur dostonchilik maktabi qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur. Bu maktabda ko‘pgina baxshilar yetishib chiqqan bo‘lib, ularning so‘nggi vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidir. Nurota, Oqtov, Mang‘ishtov etaklari va Miyonko‘lga cho‘zilgan keng masofada yashagan xalq shoirlari Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansub. Bu maktabning so‘nggi mashhur vakiliari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Po‘lkan shoirlardir. Shahrisabz dostonchilik maktabi XIX asrda vujudga kelgan. Uning so‘nggi namoyandasi Abdulla Nurali o‘g‘lidir. Bu maktab baxshilari dostonlarni sho‘x, quvnoq ko‘tarinki ruhda aytishadi. O‘zbekistonning janubida yashovchi ko‘p baxshilar Sherobod dostonchilik maktabiga mansub. Ushbu maktabining afsonaviy namoyandasi va baxshilarining piru-ustozi Soqi Bulbul hisoblanadi. Boshqa qadimiy namoyandalari haqida ma‘lumot juda kam. Ammo XIX asrning boshlarida yashagan Bobo shoir, undan keyin o‘tgan Qosim ko‘r (1914 yili vafot etgan) va Sherna baxshi Beknazar o‘g‘li haqida qisqacha og‘zaki ma‘lumotlar mavjud. Sherna maktabidan Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Umir shoir Safar o‘g‘li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li, Nurali Boymat o‘g‘li kabi yigirmaga yaqin dostonchilar yetishib chiqqan. Ushbu maktabning eng iqtidorli vakili Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘lidir.

Qoraqalpoq dostonchilari orasida bu kasbning eng qadimgi namoyandalari ya‘ni jirovlar hozirgi kungacha o‘z ota-bobolari an‘analarini davom qildirib kelmoqdalar. Jirovlar qahramonlik va bahodirlik dostonlarini asosan qo‘biz jo‘rligida kuylaganlar. Jirovlar haqidagi ma‘lumotlar kam bo‘lsada turli

afsonalarda uchrab turadi. Masalan: Oltin O‘rda xonligi yemrilmasdan oldin paydo bo‘lgan No‘g‘oylarning “Edigey” dostonida Soppasli Sapira degan jirovning juda dono bo‘lganligi, qadimgi bahodirlar haqidagi dostonlarni qo‘biz jo‘rligida aytib urug‘ va elatlarni birlashishga chorlagan. Shuningdek, Shanqay yoki Shanket jirov (1814-1884), Jiyamurat jirov (1836-1908), Nurabilla jirov (1862-1922), Erpo‘lat jirov (1861-1938), Qurbanbay jirov (1876-1958), To‘ra jirov (1879-1944), Otaniyoz jirov (1883-1989), Og‘iz jirov (1884-1954), Qiyos jirov (1903-1974) va boshqalarni aytish mumkin. Qoraqalpoqlarda dutor chalib qo‘shiqlar ijro qiladigan, barcha turdagi (ishqiy-romantik, nasihat-didaktik, diniy-falsafiy) dostonlarni aytadiganlarga baqsi yoki baxshi deyiladi. Mashhur qoraqalpoq baxshilaridan Oqmambet baxshi, Musa baxshi, Edenboy baxshi va boshqalar dostonchilik hunarini rivojlantirganlar. Ular o‘zlariga Suyav baxshini ustoz deb bilganlar va ko‘hna Xorazm madaniyatini har taraflama o‘rganib undan ijodiy foydalanganlar. Natijada «Oshiq G‘arib va Shohsanam», “Yusuf-Ahmad”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlar qoraqalpoq baxshilarining eng asosiy repertuarini tashkil qilgan.

Suyav baxshi asli Po‘rsi turkmanlarning Chovdir urug‘idan bo‘lib, Bo‘zachi tegarasi, go‘mmachi Seyitnazar degan joyida XVIII asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan. Uning shogirdlaridan: Adilboy baxshi uning shogirdi xitoy urug‘idan O‘rinboy baxshi (1908-1952), Yangabay To‘ra o‘g‘li (1887-1961), Japaq baxshi - Jabborbergan Shomurodov (1893 - 1970), Juman baxshi (1871-1949), Ibrayim Patullaev (1909-1967), Qiz baxshi Hurilomon (1861-1906) va boshqa juda ko‘pgina baxshilar qoraqalpoq dostonchilik san‘atiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar.

Turk xalqlarida barcha dostonchilar Bobo Qo‘rqit (Bobo Qo‘rqit, Dada Qo‘rqit, Qo‘rqit Ota)ni o‘zlariga piru ustoz deb bilganlar. U butun Osiyo, Kavkaz oldi hududlarida yashovchi turkiy xalqlarda afsonaviy qo‘shiqchi, dostonchilik asoschisi, musulmonchilik targ‘ibotchisi, mashhur oqin, kuychi, jirov, sifatida ta’rif etiladi. Qo‘rqit ota hozirgi Qizilo‘rdaning Qarmoqchi degan joyda tavallud topgan. Og‘zaki ma’lumotlarga ko‘ra, Dada Qo‘rqitning onasi

Qipchoq urug'idan, otasi esa Qoraxo'ja o'g'izlaridan bo'lgan. Qo'rqit boboga nom qo'yilishi bilan bog'liq ko'pgina afsonalar mavjud bo'lib, ba'zi rivoyatlarda aytilishicha - Qo'rqit dunyoga kelgan paytida xaltacha ichida tug'iladi. Buni guvohi bo'lganlar qo'rqib ketadilar va xaltachani ochib qarasarlar ichida nimjongina chaqaloq yotganini ko'rib quvonadilar. SHu bois, u bizni boshida qo'rqitdi, endi ismi Qo'rqit bo'lsin deb bolani shu nom bilan ataydilar. YOzma ma'lumotlarga qaraganda Qo'rqit bobo 95, ba'zilarida 195, Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarayi tarokima» asarida bayon etilishicha: - «Inalyovixonning vaziri Qo'rqit ota erdi. Qo'rqit ota nimarsa tesa Inalyovi aning so'zidan chiqmas erdi. Qo'rqit otaning karomatlari ko'p erdi, ikki yuz to'qson besh yil umr topdi, uch podshohga vazir bo'ldi. Salur Qazan Qo'rqit ota bilan bir zamonda erdi. Qo'rqit otaning Salur Qazan Alpni maxtab aytqan tartimi (tarixi) bu turur:

*Tur va turkman, arab, ajam raiyatlar,
Qazan qildi musulmong'a tarbiyatlar,
Kofirlarni qirdi o'shal ko'p fursatlar,
Alplar, beklar ko'ran bormu Qazan kabi.*

*Andin hunar ko'tardilar barcha ulli,
Ba'zilarga o'run berdi sag'li-so'lli,
Bizga bo'ldi Qamug' elning o'rni dingli,
Alplar, beklar ko'ran bormu Qazan kabi.
Saboh sayoh Qo'rqit o'lar bo'lding emdi,
Ul Qazanning davlatina duo qilg'il"*

deyiladi. O'sha davrda Inol, Ko'larkon, Qonlixo'ja, Qozonxon degan xonlar Ettisuv, Talas, Sayram, Qozig'urt, Qoratog', Sir bo'yi, Oltoy o'lkalarini boshqarganlar. Qo'rqit ota ularning vaziri sifatida zamonasiga yarasha qonun - qoidalar yaratgan. O'z hududini dushmandan himoya qilish, er va suvdan tartib

bilan foydalanish, arz va kelishmovchiliklarni oqilona hal etish masalalariga katta e'tibor qaratgan.

Rivoyatda aytilishicha Dada Qo'rqit keksayganida uni jonini olish uchun ajal kuzatib yuradigan bo'ladi. Qo'rqit ota doimo «Hayot qo'shig'i»ni kuylar va Azroyil unga yaqinlasha olmas ekan. U qo'shig'iga jo'rnavoz cholg'u - qo'biz yasash uchun o'rmonda yog'och axtarib yurgan paytida shaytonlar suhbatini eshitib qoladi va qo'bizni ular aytganday qilib yasab «Hayot qo'shig'i»ni yanada baland chalib, kuylab yuradi. Bir kuni charchab ko'zi uyquga ketadi, ajal esa zaharli «Qayroq ilon» qiyofasiga kirib Qo'rqit boboni chaqib o'ldiradi. Shundan beri hayot va ajal o'rtasida tinimsiz kurash borar emish.

Bola baxshining aytishiga qaraganda shimoliy O'zbekiston va Turkman baxshilari Oshiq Oydim degan baxshini o'zlariga piru ustoz deb biladilar. «Tavsirotul Husayin» kitobida bayon etilishicha Oshiq Addin Shixobiddin ibn Umar (Oshiq Oydim pir) tarixiy shaxs bo'lib, mo'g'ullar istilosidan yuz yilcha burun Xorazmning Voston shahri yaqinidagi Diyorbakr (Turkmanistonning hozirgi Toshhovuz viloyati) qishlog'ida tavallud topib ijod etgan. Uning haqidagi eslatmalar «Xirmondali» (Xirmonpari, Guli Xiromon) dostonlarida keltiriladi: «Rum elidagi go'zal Xirmondalidan xabar kelgandan keyim o'tlanib ketayotgan Go'ro'g'liga Og'o Yunus Pari murojaat qilib:

*Munnan borsang shahri Bo'ston (Voston) borib get,
Haq yodini yuraginga solib get,
Oshiq Oydim pirdan duo olib get,
Olsang nasihatim getma Go'ro'g'li.*

Bu nasihatga quloq solmay ketgan Go'ro'g'li borib Xirmondalidan aytishuv va bellashuvda yengilib qaytib keladi". Shundan keyin Oshiq Oydim pirga shogird tushadi va 115 yashar qari pir Xirmondali bilan quyidagi tarzda aytishadi.

Oshiq Oydim: *Haq deyib chiqmisham go‘rdan,
Uchrasa qocharsan erdan,
Xabar so‘rsang qarri pirdan,
Yaxshi tani bobongni san.*

Xirmondali: *Oshg‘liqda yo‘qdir siyning,
Maydonda do‘kilar qoning,
Eylamay olarman joning,
Qani o‘qi iymonni san.*

Natijada Oshiq Oydim Xirmondalini yengadi va butun baxshilar uni pirustoz deb tan oladilar. Bellashuvlar va ularda g‘alabaga erishgan baxshilar haqida bunday rivoyat va hikmatlar ko‘plab uchraydi.

Shimoliy O‘zbekiston baxshilarining dutori boshqalarnikiga qaraganda kichikroq bo‘lib, hajmi 970-1040 m.m. ni tashkil qiladi va baxshilar qo‘shida doira va bulomon cholg‘ulari jo‘rligiga keng o‘rin beriladi. Ularning mashhur namoyandalari Eshvoy va Matniyoz Go‘rja hisoblanadi. Eshvoy baxshi asli SHovotlik bo‘lib. Olloqulixon davri (1825-1842 yillar)da yashab ijod etgan. U o‘ndan ortiq shogirdlarni etishtirgan. Ularning ichida eng katta shuxrat topgani Matniyoz go‘rja bo‘lib, uning ikkala ko‘zi ko‘rligidan turkmanlar orasida ismiga go‘rja ya‘ni ko‘r laqabini qo‘shishgan. Qoraqalpoqlar ichida esa uni G‘aribniyoz deydilar. Matniyoz o‘z ustozini Eshvoy baxshi haqidagi quydagi sherni bitib, uni o‘zi bastalagan va ustoziga bag‘ishlagan «Eshvoy» kuyiga solib o‘qigan. She’rda Eshvoyning qaysi urug‘dan ekanligi, so‘zga ustaligi mehr va dard bilan ta’riflanadi:

*Ey yoronlar vaspin siza aytayin,
Haq sanosi tilindadir Eshvoning,
Asli zotin bir-bir bayon aylayin,
Chiqqan joyi Chig‘atoydir Eshvoyning.*

She’rdan ma’lum bo‘lishicha, Eshvoy baxshi o‘z davrida Otash, Nurjon degan baxshilar bilan ham aytishuvlar qilgan.

Shunga o'xshash ta'riflari el orasida yoyilgan baxshilar juda ko'plab uchraydi. Ularning yirik namoyandalaridan Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyav baxshi uning shogirdi Mang'itlik Otajon baxshi, Ahmad baxshi Matnazar o'g'li, Avaz bola, Chig'atoylik Nurillo baxshi, Qiyot - Qo'ng'irotlik Annafas baxshi, Matyoqub qori va uning o'g'illari Hasan hamda Sayid baxshilar, Xivalik Bekjon baxshi, Honqalik Abdrim baxshi, Usmon baxshi (Bola baxshining bobosi), Buva baxshi, Jumanazar baxshi, Bola baxshi, Yo'ldosh baxshi Do'simbetov, Gurlanlik sakrak baxshi – Jumaboy Xudoyberganov, Mang'itlik Tursun baxshi Jumaniyozov va boshqa ustoz dostonchilar etishib chiqqan.

Muhammadrahim xon Feruz davrida Xorazm hududida 40 nafardan ziyod baxshi va 32 ta sozanda qo'shlari bo'lib, ularni har yilgi 12 kunlik sayil davrida sinovdan o'tkazar, g'olib chiqqanlar elni to'y tomoshasida xizmat qilishga fatvo olar, mag'lub bo'lganlar esa masxara qilinar ekan.

Ana shunday ko'riklardan birida mag'lub bo'lgan qoraqalpoq baxshisi Kunxo'ja (1799 - 1880) o'z noroziligini she'r bilan quyidagicha bayon qiladi:

*Sovg'a berdi baxshilarga,
Hech boqmadi yaxshilarga,
Lofchimishman vahshiylarga,
Ularga men hech yoqmadim.*

*Keltirdilar unga tuya,
Menga surtdi qora kuya,
O'limtikka bo'ldim ega,
Buni hech bir unutmaman.¹*

Bunday ko'riklarda nafaqat o'zbek baxshilari, balki qoraqalpoq va turkman baxshilari ham o'zaro bellashganlar.

¹ Kunxo'ja she'rlar. T., G'.G'ulom nashriyoti. 1973 y. 20 bet.

Doston kuylari baxshilar tilida *noma* deb yuritiladi va ular turli maktablarda har-xil shakllangandir. Xorazm doston ijrochiligining Shirvoniy uslub nomalari 72 ta bo‘lib, ular turkumlarga bo‘linadi: «*Naylarman*»lar to‘rtta, “*Nolish*”lar ettita, “*Ilg‘or*”lar beshta, “*Eshvoy*”lar beshta, “*Baxshi muxammas*”lar uchta, “*Shirvoniy*”lar uchta, “*Sho ko‘chdi*”lar uchta, “*Zorinji*”lar ikkita. Shuningdek, “*Boboxonim*”, “*Gulandom*”, “*Sarvigul*” kabi juda go‘zal kuylari bor. Bu nomalar doston she‘rlarining vazni va bo‘g‘inlariga qarab ma‘lum ijrochi - baxshining bilimi, kuy tanlash didi va ovoz imkoniyatlariga ko‘ra tanlab olinadi va zarur holda, she‘rlarga bog‘lab o‘qiladi.

Ergash Jumanbulbulning quyidagi she‘rida Nurota (Qo‘rg‘on qishloq) maktabi uslubiga oid doston nomalari sanab o‘tiladi:

*Yigirma xil ohang bilan so‘z aytib,
Yigirma xil noma do‘mbira chertib,
Xoh katta xoh kichik eshitsa,
Har qanday odamni balqitib eritib.*

Sherobod maktabining mashhur baxshisi Umir shoir Safar o‘g‘li ijodiga mansub she‘rda esa Qamay maktabi nomalari soni keltiriladi:

*Ey do‘mbiram gajakdor,
O‘ttiz ikki nomang bor.
Hammasi ham maftunkor,
Birin chalsam biri bor.*

Deb 32 noma borligi qayd etiladi. Shulardan “*Cho‘poni*” nomalar uchta, “*Kelinoy*” o‘n to‘rtta, “*Ot haydash*” uchta, “*Qo‘y qaytarish*” uchta, “*Loqay jilov*” va shuningdek, ko‘pgina baxshilarning nomlari bilan bog‘liq nomalar yaratilgan.

1.3 Doston nomalari asosida bastalangan ashula va cholg‘u musiqalari

O‘zbek mumtoz asarlari juda qadimiy va bebaho sanaladi. Shu bilan birga juda mukammal hamdir. Ayniqsa xalq og‘zaki ijodiyotida dostonlar mavjud bo‘lib, uning nomalari asosida yaratilgan asarlarning ham mumtoz xazinamizda alohida o‘rni bor. O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston, Turkmaniston xalq artisti Komiljon Otaniyozov yaratgan “Naylayin” ashulasi ana shunday asarlardan biridir. Bu asarning she‘ri “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” dostonidan olingan bo‘lib, G‘aribni shox Abbas uzoq o‘lkalarga surgun qilib yuborganidan keyin, Shoxsanam yorini sog‘inib, Aqcha kelin, ya‘ni eng yaqin xizmatkori, maslakdoshiga o‘z dardini yig‘lab aytib turgan nomasidir. Aslida dostonda bu she‘r “Zorinji” deb atalgan nomada aytiladi. Ammo Komiljon Otaniyozov barmoq vaznida yozilgan bu she‘rni o‘z ruhiyatiga moslab musiqasini yaratgan.

Yana shunday asarlardan biri ajoyib xonanda va bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulov bastalagan “Guluzorim” ashulasidir. Ma‘lum bo‘lishicha XIX asrning birinchi yarmida, Xiva xoni Sulton Madaminxon davrida yashab ijod etgan Eshvoy ismli baxshi o‘tgan ekan. U ijro etadigan dostonlariga o‘zi nomalar bastalagan ekan. Hozirgi kunga qadar u bastalagan nomalardan beshtasi ma‘lum bo‘lib, shulardan ikkitasi cholg‘u kuy va uchtasi ashula sifatida saqlanib qolgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov haqida yozilgan kitoblardan u kishini Xorazmga borganligini tasdiqlaydigan dalilni topmadik. Ammo Xorazmlik hofizlar san‘atidan bahra olganliklari haqida ko‘plab og‘zaki va yozma ma‘lumotlar bor. Shundan xulosa qilishimiz mumkin-ki, xorazmlik xonandalar ijodini eshitib, ilhomlangan holda Hoji Abdulaziz Abdurasulov “Guluzorim” ashulasini yaratgan. Bundan tashqari “Shashmaqomda” uchraydigan “Avji Turk” deb nomlangan avjdan ham mohirona foydalangan. Ya‘ni “Guluzorim” ashulasi doston nomasi va shashmaqomning bir bo‘lagini o‘zida mujassam etgan omuxta va shu bilan birga go‘zal asardir.

Eshvoy baxshi nomalari asosida yaratilgan beshta asar ya‘ni, “Eshvoy birinchi”, “Eshvoy ikkinchi”, “Kurd Eshvoy”, ashulalari va “Turkman Eshvoy”, “Eshvoy Urganjiy” kabi cholg‘u kuylar hozirgi kunda ma‘lum. Ular asosida

yaratilgan asarlar ham talaygina. Shulardan “Farg‘ona Eshvoyi”, “Katta eshvoy”, “Guluzorim”, “Qo‘shchinor”, “Laziz” kabi ajoyib ashulalar o‘lkamizning boshqa vohalarida atoqli bastakorlari tomonidan yaratilgan.

Yana shunday asarlardan biri Kurd Eshvoy bo‘lib, kurd atamasi turkiy tilda qashqir, bo‘ri ma‘nosini bildiradi. Bundan tashqari qadimda Kurd nomli qabila bo‘lgan, hozirgi kunda esa bu qabila xalqqa aylangan. Mazkur asarga ramziy ma‘noda kurd atamasi qo‘shilgan. “Kurd Eshvoy” nomli asarning Farg‘ona vodiysida yaralgan turi ham bor. Pardalari, musiqiy tuzilishi bir xil, ammo she‘ri va vohaga mansub jihatlari ularni bir – biridan farqli ekanligini bildiradi.

Atoqli sozanda va bastakor Shavkat Muhammedov (Mirzaev) asli Farg‘ona vodiysida ham cholg‘u kuyi sifatida ma‘lum bo‘lgan “Farg‘ona Eshvoy”iga she‘r qo‘yib, ijodiy izlanishlar qilgan hamda shogirdi, O‘zbekiston xalq artisti Munojot Yo‘lchievaga o‘rgatgan.

Xushovoz xonanda Bahtiyor Sultonov tomonidan kuylangan “Yetishmas” ashulasining she‘ri “Toxir va Zuhra” dostonidan olingan bo‘lib, barcha baxshilar uni turli nomalarda ijro etishgan. Atoqli xonanda va bastakor Iskandar Pirmatov ushbu musiqani yaratib, milliy musiqamiz hazinasida chuqur iz qoldirdi.

Ana shunday musiqiy asarlardan yana biri “Bozurgoniy” ashulasidir. Ma‘lumki mazkur asarning bastakori va ilk ijrochisi Hoji Abdulaziz Abdurasulovdir. Bu asar “Baziryon” dostonidagi “Naylarman” nomasining aynan o‘zidir. Unda Baziryon ismli savdogar Go‘ro‘g‘li Sultonga bosh egmay, ular orasida ziddiyatlar paydo bo‘lgan vaqtda Go‘ro‘g‘li nomidan ijro etilgan “Man Baziryona uchradim” radifli barmoq vaznidagi she‘rga aytiladi. Ammo Hoji ota she‘rlarini aruz vaznidagi Fazliy g‘azaliga Vola muhammasi bilan o‘zgartirib, avj qismiga “Shashmaqom”dagi “Zebo pari” avjini mohirona qo‘llab, ijro etadi.

Ayniqsa Xorazm maqomlaridan “Naqshi Rost”, “Naqshi Navo”, yirik ashulalardan “Feruz” ning savtlarida “Nolish” nomalarining kuy muqaddimalari uchrasa, “Segoh” tani maqomi o‘rta avjlarining “Katta Naylarman” avjlariga

o'xshashligi yoki "Naylarman II" ning avji va "Naqshi Navo" avjlaridagi hamohangliklarni ko'rish mumkin.

Bunday o'zaro ta'sir natijasida ular bir-birini to'ldirgan va boyitgan. O'z navbatida doston nomalarida Qadimiy zarb, Soqiynoma, Ufor va hatto Nasr usullarining uchrashi doston kuylarining usul asoslariga maqom doira usullarning ham ta'sir ko'rsatganligini bildiradi. Bunday cholg'u muqaddimalar Feruz uchinchi asarida ham uchraydi. O'zbekiston xalq hofizi, atoqli xonanda va yetuk bastakor Orifxon Xotamov ham o'zi yaratgan Navoiy g'azali bilan "Qoshi yosinmu deyin" deb nomlangan ashulasida ham "Nolish" nomasining cholg'u muqaddimalaridan musiqiy go'zallika shikast yetkazmagan holda mohirona foydalangan. Shu bilan birga "Aliqambar", "Norim-norim", "Qari Navo", "Qalabandi", "Farg'ona Eshvoyi" va boshqa yirik shakldagi kuylarda "Ilg'or" va "Eshvoy" larning ma'lum ko'rinishlari uchraydi.

Xalq dostonlari, nomalari ajdodlarimiz qoldirib ketgan ulkan ma'naviy hazina. Ushbu hazimadan unumli foydalanish esa ularning ijrochilari va musiqashunoslarga bog'liq. Har xil horijiy ohanglarni eshitib, qulog'imizni shikastlamaylik. Aynan bizning millatimizga xos bo'lgan nag'malardan bahra olib, eshituvchi sifatida ijrochilarga talabchan bo'laylik.

Shuningdek Xorazm xalfalarining nomalar asosida yaratgan qo'shiqlari va boshqa ijrochilar ijodi katta ko'lamdagi asarlarni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda yoshlarni jalb qilayotgan estrada janriga ham doston kuy-nomalarining kirib borishi quvonarli holdir. Bu borada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Maxmud Namozov ijodini olib qaraydigan bo'lsak, bu san'atkor yoshligidan do'mbira chalib dostonlar aytib yurganligi sababli u yaratgan estrada qo'shiqlarida Surxon – Sherobod doston nomalarining tarovati jo'sh urib turadi.

Bulardan tashqari o'zbek bastakorlari tomonidan yaratilgan "Alpomish", "Ravshan va Zulxumor", "Oshiq g'arib va Shohsanam", "Aziz va Sanam" va boshqa juda ko'pgina sahnaviy asarlar mavzusi, ularning musiqasi doston nomalari asosida mohirona ishlanganligini guvohi bo'lamiz.

Shuningdek zamonaviy kompozitorlar ijodida ham doston kuylariga murojaat qilinayotganligini ko'rish mumkin. Shulardan Mirsodiq Tojievning uchinchi simfoniyasi 2 - qismida "Nolish" kuyining boshlang'ich muqaddimasi bosh mavzu sifatida qabul qilingan va tobora rivojlantiriladi. Rustam Abdullaevning beshinchi fortepiano konserti 3 - qismida "Ilg'or I" kuyidan unumli va mohirona foydalanilgan.

Xorazm maqom yo'llari va doston namunalari o'zaro ta'siri natijasida ularning yanada boyiganligi, hamda nomalar asosida yuzaga kelgan kuy, qo'shiq va ashulalarga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, doston nomalari nafaqat asl, to'la va mukammal an'anaviy ko'rinishda, balki ko'pchilikka ma'lum va mashhur qo'shiqlar bo'lib, ular grammafond, magnitofond, radio to'lqinlari, «oynayi jahon» va konsert zallari orqali tez-tez yangrab xalqimiz qalb to'ridan joy olgan. Bularni nafaqat badiiy-adabiy, balki umri boqiy musiqiy xazinamiz durdonalaridan desak yangilishmaymiz. Ulug'vor dostonchilik an'analari O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Ozarbayjon qisqasi umumturk sozining dilrabo, jozibador milliy-mahalliy musiqiy navolarini o'z ichiga mujassamlashtirgandir.

II BOB. DOSTONCHILIK SAN'ATI VOSITASIDA O'QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASHNING MAZMUNI, SHAKLI, VOSITA VA METODLARI

1.2. Dostonlar - avlodlarni kamolotga yetaklovchi tarbiya manbai.

O'zbek xalq dostonlari xalqning hayoti, kurashi orzu-umidlari ifodasigina bo'lib qolmay, avlodlarni kamolotga yetaklovchi tarbiya vositasi, tarbiya qomusi ham hisoblangan. Dostonlar o'z hatida milliy mafkura, milliy g'oya va milliy qadriyatlarimizni, xalqning baxtli yashash to'g'risidagi ideal orzu istaklarini ifodalagani sababli har bir avlod tomonidan qiziqib, ishtiyoq bilan tinglangan va har avlodning tafakkur dunyosi bilan boyitilgan holda keyingilariga asrab avaylab o'tkazilgan. O'z Vatanining jonkuyari bo'lgan haqiqiy insonni kamolga yetkazish uchun biz uzoq asrlik milliy an'analarni o'rganishimiz va milliy hamda umuminsoniy g'oyalarni, qadriyatlarni bugungi avlod ongiga singdirishimiz darkor. Bu esa o'z-o'zidan xalq og'zaki badiiy ijodiga, xususan, eng yirik epik janr bo'lgan dostonlarga ham murojaat etishni taqoza qiladi.

Bugungi kunda yosh avlodni yurt ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qiladigan, bilimli, serg'ayrat, o'z sohasining bilimdoni etib tarbiyalash muhim maqsad va vazifalardan biridir. Bunda xalq dostonlarining o'rni beqiyosdir. Chunki, dostonlarda vatanparvarlik, va'daga vafo, mardlik, jasurlik, do'stlik, vafodorlik, lafzihalollik, ota-onaga hurmat, insonparvarlik, yovuzlikka qarshi kurash kabi fazilatlar ulug'lanadi va o'z navbatida sotqinlik, g'iybatchilik, laganbardorlik, ig'vogarlik, tuhmat va hasadgo'ylik kabi illatlar qoralanadi. Xalq dostonlarini bolalarga aytib berish, o'rgatish, muhokama qilish nafaqat tarbiyaviy ahamiyat, balki siyosiy ahamiyat ham kasb etadi. Demak, hozirgi kunda, eng avvalo, yoshlarda ana shu hislatlar, tuyg'ularni tarbiyalashimiz kerak. Bunday ma'suliyatli va nihoyatda nozik vazifani hal etishda hozir ham biz eng ta'sirchan va samarali vosita — xalq dostonlaridan o'rinli va salmoqli foydalanishimiz lozim. Masalan, “Oshiq Mahmud” dostonida Nigorxonga g'oyibona oshiq bo'lib, cho'lu biyobonlar oshib ketayotgan Mahmudjonga yo'lida ikki go'zal uchrab, uni Nigorxondan aynitib o'zlariga moyil etishga

uringanlarida Mahmudjon ularga: “O‘tkinchi havas birla husningni harob etma, ishq boshqa, havas boshqa, bu yo‘lda xato ketma”, – deydi . So‘ng “Nigorxonning bosib o‘tgan izini sizlardek o‘n qizga alishmayman”, - deb qat’iy javob qaytaradi. Xuddi shunga o‘xshab Nigorxon ham raqiblar tomonidan daryoga tashlanib g‘arq bo‘layotgan oshig‘i Mahmudjonni qutqarish qo‘lidan kelmagach “Sensiz menga bu yorug‘ jahon nimaga kerak” deb o‘zini daryoda oqib borayotgan Mahmudjon tomonga otadi. Ana shu sof va beg‘ubor sevgi, sevgiga bo‘lgan sadoqat, maqsadga intilishdagi iroda va matonat sevishganlarning mushkullarini oson qiladi, qiyinchiliklar girdobidan qutqarib, murod va maqsadlariga yetkazadi. Dostonlarning ko‘pchiligi uchun harakterli bo‘lgan hususiyatlardan biri do‘stlikdir. Buni Mahmudjon va Qambarjon, Alpomish va Qorajon obrazlarida uchratish mumkin. “Alpomish” dostonida shunday bir lavha bor: Qalmoq elidan Barchinoy Hakimbekka xat yuboradi. U to‘qson alpdan qirq kun ruxsat olib, shu qirq kunda Alpomishning yetib kelishiga umid bog‘laganini izhor etadi. Lekin xat Hakimbekning qo‘liga tegmaydi, uni otasi Boybo‘ri bекitib qo‘yadi. Chunki u o‘g‘lining begona yurtga — Qalmoq eliga borishini hohlamaydi. Xatni Hakimbekning singlisi Qaldirg‘ochoyim topib, akasiga beradi. Hakimbek xatni oladi-yu, indamaydi. Qaldirg‘och javobini so‘raganida “Bir xotinni deb, qalmoqlar bilan talashib yuramanmi”, — deydi. Shunda shaddod qiz akasining yigitlik hamiyatiga tegadi va “Er yigit o‘lmay, yorini birovga berami?” — deydi. Hakimbekning hamiyati qo‘zg‘ab, mudroq g‘ururi junbushga keladi va otasining qarshiligiga qaramay, Qalmoqqa yo‘l oladi. Endi Barchinga qaytaylik, Barchin Qorajondan Hakimbekning kelganini eshitib, “Alpomish kelsa kelibdi-da, nima qilay. Alpomish keldi deb etagiga osilib ketaveraymi, kelgan bo‘lsa yaxshi. Men to‘qson alpga va‘da berganman. Alpomishga ham, ularga ham shartim bor. Kim shu shartlarimni bajarsa, shunga tegaman”, — deydi. Ana o‘zbek qizining mardligi va jasorati, g‘ururi! Xalqimiz, ajdodlarimiz avlodlarining, farzandlarining sog‘lom, baquvvat, pahlavon bo‘lishlarini azaldan orzu qilib kelgan. O‘zbek xalqi o‘zining Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Kuntug‘mish, Ravshan,

Avaz, Hasan kabi afsonaviy pahlavonlariga ega. Xalqning qahramonlik va mardlik haqidagi orzulari, sodiq do'st, vafoli yor, jonkuyar og'a-ini to'g'risidagi umid-istaklari ana shu qahramonlar timsolida tasvirlangan. Xalq ularni o'z dushmanlariga qarshi kurashda har ishga qodir jismoniy baquvvat, ma'naviy yetuk qahramonlar qilib ta'riflagan. Masalan, Hakimbek yoshligidanoq bahodir, har ishga qodir bo'lib o'sadi. U yetti yoshidayoq bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmonli yoydan otib, Asqar tog'ining cho'qqisini uchirib yuborgani uchun Alpomish nomini oladi va to'qson alpning biri bo'lib qoladi.

Alpomish faqat kuchli, jasur bo'libgina qolmay, adolatli, jonkuyar, bechoralarga madadkor, do'stga sodiq, yorga vafodor, ota-onasi va Vataniga mehrlil, fidoyi yigitdir. O'zbek xalqi faqat yigitlarningina emas, qizlarning ham jismoniy chiniqishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalangan. Masalan, Barchinoy ham, Misqol pari, Yunus pari, Gulchehralar kuch-quvvatda, mardlik va shijoatda, Alpomish, Go'ro'g'li, Hasanlardan qolishmaydi. Barchinoyning mardligi, jasorati o'zbek qizlari uchun ibratdir. Barchin mardlik va dovyuraklikda, o'z kuch-qudratini namoyon qila bilishda Toychaxon alplariga teng keladigan botir, jismoniy jihatdan yetuk, alp va go'zal qiz sifatida tasvirlanadi. Masalan, to'qson qalmoq alpning biri Ko'kaman Barchinning o'toviga kelib, ota-onangni o'ldirib, «men seni zo'rlikman olarim bordir» deb do'q-po'pisa qilganida, Barchin unga qo'rqmasdan shunday javob beradi:

*Haq so'zimdi ola berding qiyoma,
Qo'lingdan kelganin qilgil, ayama.
Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar,
O'z yo'lingga bora bergin badbaxtlar.
Xabar borsa, bek Alpomish kelmasmi,
Hakim kelsa, senday qalmoq o'lmasmi.
Holing bilib, to'g'ri yursang bo'lmasmi?
Kelsa kelar Qo'ng'irotdan Alpomish,
Kelmasa, men taqdirimdan ko'rarman.
Erkak libosini o'zim kiyarman,*

Bor kuchimni bilagimga yig'arman.

Qirq mingingni bir deb sanab qirarman,

Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar.

Barchinning bu soʻzlari quruq doʻq boʻlmay, haqiqatda ham unga tegajoqlik qilgan qalmoqni yerga yiqitib, tavbasiga tayantiradi. Lekin gʻirromlik qilmaydi, vaʼdasida turadi. Alpomish kelgach, shartni bajarishni talab qiladi. Xalq tasviridagi Barchin ana shunday mard qiz edi. Yoki oʻzbeklarning yana bir afsonaviy qahramoni Goʻroʻgʻli ham dev kelbatli, mard, jasur, el uchun, yurt uchun jonini ham ayamaydigan fidoyi shaxs sifatida tasvirlanadi. Xalq oʻzi yaratgan qahramonni oʻzi suyib-ardoqlaydi. Goʻroʻgʻli afsonaviy Chambil elining podshosi. Eliga mehrlil, dushmanlariga oʻta shafqatsiz. Goʻroʻgʻli faqat oʻzidan emas, oʻzgalardan ham qattiqqoʻllik bilan Vatan uchun, or-nomus uchun dushman bilan kurashda jonini ham ayamashlikni talab qiladi. Jangda qoʻrqoqlik qilgan, xoinlik qilgan qochoqlarni ayamay jazolashini aytadi.

Oʻzbek xalq dostonlari xalqning hayoti, kurashi orzu-umidlari ifodasigina boʻlib qolmay, avlodlarni kamolotga yetaklovchi tarbiya vositasi, tarbiya qomusi ham hisoblangan. Dostonlar oʻz hatida milliy mafkura, milliy gʻoya va milliy qadriyatlarimizni, xalqning baxtli yashash toʻgʻrisidagi ideal orzu istaklarini ifodalagani sababli har bir avlod tomonidan qiziqib, ishtiyoq bilan tinglangan va har avlodning tafakkur dunyosi bilan boyitilgan holda keyingilariga asrab avaylab oʻtkazilgan.

Demak, oʻz Vatanining jonkuyari boʻlgan haqiqiy insonni kamolga yetkazish uchun biz uzoq asrlik milliy anʼanalarni oʻrganishimiz va milliy hamda umuminsoniy gʻoyalarni, qadriyatlarni bugungi avlod ongiga singdirishimiz darkor. Bu esa oʻz-oʻzidan xalq ogʻzaki badiiy ijodiga, xususan, eng yirik epik janr boʻlgan dostonlarga ham murojaat etishni taqozo qiladi. Xalq dostonlarida, jumladan «Zaydinoy» da nasihatlar, nasihat duolar, nasihat olqishlar epik oʻrin darajasiga koʻtarilgan va syujet rivojining asosini belgilaydi. Biz yuzlab nasihatlardan birginasini-ideal qahramon Goʻroʻgʻliga 40 chilton bergan nasihatnigina nazarda tutayapmiz. Chunki, 40 nasihat oʻzbek xalq

didaktikasining chinakam mag'zi bo'lib, insonning inson sifatida buyukligi, uning aqliy, jismoniy, ruhiy, axloqiy kamolotga erishuvida nimalarga rioya qilish zarurligini asoslab ko'rsatuvchi yo'l-yo'riq va dasturdir. Xalq o'z o'g'itlarini, pandlarini chiltonlar nomidan bayon qiladi. O'zbek xalq dostonlarining boshqa hech qaysisida odob-axloq haqida qarashlar bunday yig'ma, tushunarli, falsafiy teran va badiiy mukammal tarzda bir joyda berilmagan. Ushbu nasihatlarining har birini bir saboq tarzida sharhlashga harakat qilish mumkin. Chunki bunday sharhlash kam vaqtni oladi va undan istagan dars (adabiyot, folklor, ona tili, tarix, huquqshunoslik, odobnoma va hatto aniq fanlarda ham)da foydalanish mumkin. Darsning kirish yoki xulosa qismida, zaruriyat tug'ilganda yangi materialni o'tishda 4-5 minut vaqtni ajratib bir to'rtlikni yod aytish yoki o'qib izohlash mumkin. To'rtlikni sharhlashni o'quvchilardan so'rash esa, ularning faolligini, qiziqishini oshiradi. Har bir nasihatning ruboiy shaklda berilib borishi yohud yozma adabiyot vakiliari ijodidagi ayrim hikmatlar bilan aloqasini kuzatish ham yangi ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Biz uchun ushbu risolada yoritilishi lozim bo'lgan mavzu xalq qadriyatlari, xalq pedagogikasining qamrovi nihoyatda kengligi, unga tugal rioya etish komil inson bo'lib yetishishining asosi ekanligini ta'kidlashdadir. Garchi u birgina yosh qahramonga aytilgan shunchaki maslahatlar, pandu-nasihatlar bo'lib tuyulsa-da, aslida avlodlarimiz tomonidan necha ming yillar davomida ishlab chiqilgan, hayotiy tajribalar, ruhiy va milliy xususiyatlarni o'zida jamlagan Odobnoma, Ibratnoma, Hikmatnoma saboqlaridir. Muqaddas ilohiy kitobimiz Qur'oni karim suralarining 6 tasidagi 9 oyatda ota-onalarning ulug'ligi, ularni qadrlash takror-takror uqtiriladi. Jumladan, «Al-isro» surasining 23-24-oyatlarida aytilishicha, insonning birinchi vazifasi Allohga ibodat qilish bo'lsa, ikkinchi vazifasi, burchi ota-onaga yaxshilik qilishdir. Ota-ona qaysi dinga, millatga mansubligidan qat'iy nazar, farzand ularga nisbatan hurmatda bo'lishi, so'zlarini qaytarmasligi, ularga nisbatan yaxshi niyatda bo'lishlari shart.

Chunki shu ulug' zotlar farzandning bu yorug' olamni ko'rishlari, yashashlari sababchisidir. Ota-onaga bo'lgan cheksiz muhabbat xalqimizning eng go'zal qadriyatlaridan biri darajasiga ko'tarilgan va asrlar davomida qon-qonimizga singgan. Har bir avlod ota-ona va farzandlar orasidagi ilohiy muhabbatni o'gitlar tarzida, shaxsiy namuna ko'rsatish asosida, badiiy ijod vositasida so'nggi avlodga singdirgan. Buni biz qodir baxshi Rahim o'g'lining «Zaydimoy» dostonida ham ko'ramiz:

*Ota bilan yashar ushbu basharyat,
Farzand uchun ota oltin imorat.
Yomon bo'lsa hamki ota ulug'dir,
Ketgan bo'lsa qil qabrin ziyorat.*

deya chiltonlar yosh Go'rug'liga otaning ulug' insonligini, uni qadrlash, e'zozlash lozimligini uqtiradiki, to'rtlikdagi ma'no muqaddas kitobdagi ma'noga yaqin turadi. Zero, otalar bo'lmasa, bashariyat bo'lmaydi. Har bir farzand o'z otasini tengsiz xazina bilmog'i, uni zarracha xafa qilmasligi, ko'nglini qoldirmasligiga burchlidir. Garchi ota o'zgarlar nazarida yomon bo'lsa-da, farzand uni hamisha yaxshi deb bilmog'i, hurmatini joyiga qo'ymog'i shartdir. Chunki o'zganing yaxshi otasi emas, o'zining yomon otasi dunyoga kelishiga, unib-o'sishiga, hayotdan zavqlanishiga sabab bo'lgan. Farzand uchun ota qanchalar ulug' bo'lsa, vujudida o'stirib dunyo keltirgan, oq sut berib tarbiyalagan ona yanada buyukdir, e'zozga loyiqdir. Shu taburruk zotning mehri, muhabbati, fidoiyligi, qanchadan-qancha uyqusiz tunlarda tortgan cheksiz tashvishlari evaziga farzand kamolotga erishadi. Shuni uchun ham Qodir baxshi Rahim o'zining «Zaydinoy» dostonida alohida uqtiradi:

*Ona ko'rsatadi jahon yuzini,
Oltiniga bit har bir aytgan so'zini,
Birisi oy bo'lsa, biridir quyosh,
Tavob ayla bosib ketgan izini.*

Ota-ona haqida bu quyma misralar ulug' bobomiz hazrati Alisher Navoiy fikrlariga hamohangdir. Ammo xalqda davomiylik kuchliroq. Ya'ni farzandning

ota-ona oldidagi burchi ularni tiriklik paytidagina e'zozlash emas, balki vafotidan so'ng ham har qachon bosgan izlarini tavob aylab, qabrini tez-tez ziyorat qilib, duo bilan yodlab turmoq shart.

Inson shunday yaralganki, uning har bir a'zosi yashash omili bo'lish, ma'lum belgilangan vazifani bajarish, o'zaro aloqalarni, ijtimoiy munosabatlarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Gap har kim o'z a'zolarini aql-idrok bilan ishlatishida. Aql-idrok, qobiliyat, talant faqat irsiy xususiyat bo'lmay, olingan tarbiyaga ham bog'liqdir. Go'daklikdan to'g'ri tarbiya olgan inson xalq ma'qullaydigan axloqiy fazilatlarga ega bo'ladi, el va yurt manfaati uchun xizmat qiladi. Aynan shu holat milliy urf-odatlarimizdan biri sifatida, go'zal qadriyatlarimizning eng sarasi sifatida qadrlanadi, ayni paytda, hozirgi yoshlarga ibrat-namuna ham bo'la oladi.

2.2 Dostonchilik san'atining tarbiyaviy ahamiyati

Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g'oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma'naviy kamolot sari yetaklagan. Ana shunday umrboqiy asarlardan biri «Alpomish» dostonidir. O'n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qo'shmoqovning yozishicha: «Alpomish alp bo'lgani uchun ming yillar davomida xalq yuragida o'lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomish obrazining bir qirradi, xolos. Alpomish aslida ma'naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma'naviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik uchun kurashgan qahramon... Ma'naviyat qahramoni bo'lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. Shuning uchun o'zbek xalqi o'z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish o'g'illami, Barchin qizlarni voyaga yetkazdi».²

«Alpomish» dostonida ishq - muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor, ma'lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo'lida xizmat ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalami hurmat qilish, kichiklami izzat qilish kabi ibratli tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga quloq solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. Shuningdek, o'zbekning qadimiy urf-odatlaridan bo'lgan sovchilarni kutish, mehmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, izzatini qilish, shirinso'zlik bilan muomala qilish kabi ahloqiy hislatlar ham o'z ifodasini topgan. Dostondagi qahramonlik jasoratlarini Barchin obrazida ham ko'rishimiz mumkin. Barchin alplarning eng zo'ri Ko'kaldoshdan olti oy muhlat so'raydi, ular ko'nishadi; o'n yigitga o'n bedov otni berib xat yozib Alpomishga jo'natadi: «Olti oychalik yo'lga keldim, qalmoqning eliga

² Qo'shmoqov M. "Chechanlikda so'zga suvdayin oqib..." -T.G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashri. 1978

keldim, zo‘r yovning qo‘lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa javobimni bersin», - deydi. Doston yoshlarda yoriga vafodorlik, sadoqatlilik kabi hislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi.

Dostonda aka-singil o‘rtasida mehr-oqibat, oila sha‘nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi fazilatlar ham ifodalangan. Alpomishning singlisi Qaldirg‘och «ahmoq qalmoq» elida to‘qson alpning orasida talash bo‘lib, ular zug‘umidan azoblar ichra o‘rtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan o‘pkalab, unga so‘z tig‘ini sanchadi: «Aka, aytgan so‘zim og‘ir olmagin, Nar-moda ishini bunda qilmagin», - deydi va o‘sha gaplarni yanada qamchinliroq qilib aytadi:

*«Har kim o‘z elida bekmi, to‘rami,
Nar - modalar sendan kamroq bo‘lami,
Mardning yori toy talashda qolami?»*

Ayni, «nar-moda», ya‘ni «erkak-urg‘ochi» so‘zi o‘zining ta‘nador qudrati bilan yigitning hamiyatini uyg‘otib, Alpomishni Boychiborga mindiradi, Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan yelib boradi:

*«Dubulg‘a boshda dungullab,
Kark qubba qalqon qarqillab,
Tilla poyanak urilgan
O‘zanglarga sharqillab,
Bedov otlari dirkillab,
Olg‘ir qushdayin charqillab,
Qomda nayzasi so‘lqillab,
Yurmoqchi uzoq yo‘liga,
Qaramay o‘ngu soiiga,
Yetsam deb yorning eliga
Siltab yuradi Boychibor...
Yo‘l yurar davlatli shunqor...»*

Alpomish Qalmoqshox yurtiga borib, Qorajon bilan do'st tutinadi, u Alpomish nomidan Barchinoyga sovchi bo'lib boradi va shunday deydi:

- «Qani, Barchin, Alpomish bo'lsa keldi, alplarning muhlati bo'lsa bitib qoldi, sen nima javob aytasan?» Barchin aytadi: «Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi. Mening to'rt shartim bor, shu shartimni bajargan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi Qalmoqlarning biri qilib olsin. Shu so'zimni xon to'ramga aytib bor», - deydi. Barchin qanchalik Alpomishni sevsa ham, lekin o'zbekona hayo bilan hamma qatori shartni bajarishini, ya'ni odillikni talab qiladi. Dostondagi bu parcha qizlarimizni iboli, hayoli, oqila, or-nomusli qilib tarbiyalashda juda ahamiyatlidir. Barchin alplarga to'rtta shart qo'yadi: «Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman, kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman, yoy tortishsa yoyi sinmay qolganga tegaman, ming qadamda tanga pulni urgan qarag'ay merganga tegaman», - deydi. Dostondagi qahramonlik jasoratlari mana shu to'rtta shartni bajarishda o'z ifodasini topadi. «Alpomish» dostoni o'zbek xalqining sevikli dostoni bo'lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyliigi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, to'g'rilik, hamiyatlilik, do'stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo'lgan o'zbek milliy ruhiyati yaqqol ko'rinadi. Shu bois ham «Alpomish» dostonining 1000 yilligi 1999-yilda Termiz shahrida keng nishonlandi. Zero, «Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o'zbekning o'lmas so'zi timsoli sifatida munavvarlik olib kiradi. Chinakam xalq so'zining umri boqiydir.»³

Xalq dostonlarining juda katta qismi sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga bag'ishlanadi. Ishqiy-romantik dostonlarda voqea tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Masalan, «Ravshan» dostonida Ravshan Zulxumorni uzukda ko'rib qoladi.

³ N. Maxmudov. "Til" T "Yozuvchi", 1998. 37-b.

«Kuntug‘mish»da Holbeka yigitni tushida ko‘radi, Kuntug‘mish qizning suratiga oshiq bo‘lib qoladi, ya‘ni bir-birini ko‘rmagan odamlar o‘rtasida g‘oyibdan sevgi paydo bo‘ladi. Sof sevgi esa hamisha odamni qahramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi. «Zevarxon» dostonida Zevar va Malikai Xubon o‘rtasidagi chuqur insoniy munosabatlar, visol va xijron, vafo va sadoqat, do‘stlik tarannum etiladi.

«Kuntug‘mish» dostonida yoshlarni kasb-hunar o‘rganishga undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug‘mish degan yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm-hunar o‘rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O‘n to‘rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko‘pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o‘rganadi, bar tomonlama komil shahzoda bo‘lib yetishadi. «Ravshan» dostoni ham ishqiy - sarguzasht dostonidir. Bu doston ham «Go‘ro‘g‘li» turkumiga mansub, «Ravshan» pok va samimiy muhabbatini kuylovchi, maqsadga erishish yo‘lida mardlik va botirlikni ulug‘ovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir.

«Malikai ayyor» dostoni ham «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Unda muhabbat hangomalari va ishqiy sarguzashtlar serob. Dostonda or-nomus, iymon-e‘tiqod, insoniy iroda, chidam, topqirlik singari ezgu ma‘naviy sifatlar tasvirlanadi. O‘zbek yigitlariga xos eng olijanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqol, matal va qo‘shiqlaridan juda keng foydalanilgan. “Oysuluv” dostonidagi Oysuluv o‘zbek xotin-qizlarining umumlashma obrazidir. Uning hozirgi zamon xotin-qizlariga ibrat bo‘luvchi go‘zal hislatlari juda ko‘p. Masalan, Oysuluv o‘g‘lining zindonband bo‘lganini eshitib esankirab qolmaydi, balki sabr-toqat qilib, mulohaza bilan ish ko‘radi, qo‘rqmay Eron elchilariga qarata: «Men Turon mamalakatimni, elu-xalqimni unga bermayman!» deb xitob qiladi. Ko‘rib turganimizdek, dostonlar yigitlarimizni mardlikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka chorlaydi. Shuningdek, do‘stga vafodorlik, aka-uka o‘rtasidagi mehribonlik, ota-onaga g‘amxo‘r bo‘lishga o‘rgatadi. Masalan,

aka-uka o'rtasidagi mehribonlik «Kuntug'mish» dostonida Gurkiboy va Mohiboy obrazlarida, do'stlar o'rtasidagi sadoqatlik «Zexarxon» dostonida Zexarxon va Xasanxon, «Alpomish» dostonida Alpomish va Qorajon obrazlarida tasvirlangan. Dostonlar xalqimizning o'ziga xos badiiy tarixi bo'lib, tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. Ularda xalqimizning asrlar bo'yi qilgan orzu-umidlari, kelajak haqidagi o'y-fikrlari mujassamlashgan. Xalq dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, o'zaro ishonch, do'stlik tuyg'ularini tarbiyalashda juda katta g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi. Shuningdek, dostonlarda ko'plab hikmatli so'z va maqollarni uchratish mumkin. Masalan: «G'aribning ko'nglini ovlamoq savob», «Qilichdan seskanmas botirning tani», «Kamlkning kamoli bordir, manmanning savoli bordir», «Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, yomon odam qilgan ishi minnatdir», «O'zingdan kattani uchratsang pir bil, o'zingni er bilsang, birovni sher bil» kabilar shular jumlasidandir. Xususan, «Alpomish» dostonida xalq donoligining durdonalari — hikmatli so'zlar juda serob. Ularni xalqimiz boshidan o'tkazgan tajribalar asosida yuzaga kelgan xulosalar, desak adashmaymiz:

- *«Kuchuk bosmas yo'lbars-sherning izini,
Esi bor biladi gapning tuzini».*
- *«To o'lguncha so'ylab qolgan til bo'lsin,
G'animning shavkati kuyib kul bo'lsin».*
- *«Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema».*
- *«Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga».*
- *«Sozandalar sozin chertar qo'l bilan,
Yomon odam kuydiradi til bilan».*
- *«Shahar vayron bo'lsa sulton tebranar,
Mol borida hamma odam do'st edi,
Boshdan davlat qaytsa tuqqan emranar.»*

Dostonlar mavzusiga singdirilgan yuqoridagi kabi maqollar va hikmatli soʻzlarning axloqiy tarbiyadagi ahamiyati cheksizdir. Ishqiy-romantik dostonlar yoshlarni sevgida vafodor, doʻstga sadoqatli qilib tarbiyalasa, qahramonlik va jangnoma dostonlar yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik kabi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Goʻzal xulq, mukammal maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni har bir insonda mujassam boʻlishi taʼlim- tarbiyaga bogʻliq. Shu bois yuksak maʼnaviy ahloqli yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining boshqa manbalari qatori dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini taʼlim-tarbiya jarayoniga singdirishimiz lozim. Xalq dostonlarida milliy anʼanalar, urf-odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar, xatti-harakatlar bilan bogʻlab tasvirlanadi, ular timsolida adolatparvarlik, rostgoʻylik, mardlik, insonga mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, doʻstlik va samimiyat kabi hislatlar, mehnat tarbiyasi, jismoniy kamolot, aqliy va axloqiy sifatlar ulugʻlanadi. Dostondagi ijobiy qahramonlarni xalq oʻz donishmandlariga aylantirgan. Demak, xalq ogʻzaki ijodining barcha janrlarida, jumladan dostonlarda ilgari surilgan muhim gʻoyalar, ijobiy qahramonlar timsolida mujassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi ishonch-eʼtiqodlar, urf-odatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yoʻli ham xalq ogʻzaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdan iboratdir. Zero, bu durdonalar turli ramziy obrazlar orqali oʻtmishimiz bilan hozirimizni bir-biri bilan chambarchas bogʻlab turadi, yoshlarga estetik zavq va did bagʻishlashdan tashqari ahloqiy shuurini ham uygʻotadi.

2.3 Dostonlardagi ijobiy va salbiy fazilatlar

Xalqning bu boyligi, birinchi navbatda asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda o'z aksini topgan. Chunki ularda xalqning pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda aniq, ibratli va qiziqarli tasvirlangan, hikoya qilingan voqea-hodisalarda o'rnak bo'ladigan o'g'itlar berilgan, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an'analari, urf-odatlar va falsafasi bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, tinglovchilarning, ayniqsa, yosh bolalarning oson tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim, ko'p qamrovli va tarbiyaviy ta'siri g'oyat kuchli tarmog'i hisoblanadi. Chunonchi, maqollar xalqning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo'nda, aniq va obrazli ifodalovchi bir vosita bo'lsa, naqlar hayotiy tajribalari, nasihatomuz fikrlari, donishmandligi, axloq qoidalariva falsafasini sodda syujet, ibratli mazmunda ifodalovchi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy to'qima va hayototga asoslangan xalq donishmandligining mahsulidir. Shu bois ertakdagi to'qima voqea-hodisalar silsilasida xalqning ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, axloq-odobning o'ziga xos milliy xususiyatlar namoyon bo'ladi. Rivoyatlar ham asosan ijtimoiy-maishiy voqealarni, tarixiy shaxs va hodisalarni uydirmalar vositasida bayon etuvchi kichik xajmli hikoyalar bo'lib, ularda lutf va nazokat, aql va idrok, ishq va vafot, adolat va sahovat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik madh etiladi, zulm va zo'rlik, xaqizlik va bosqinchilik qoralanadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining yirik namunasi hisoblangan dostonlarda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, marosimlar, an'analari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo'lidagi mardonavor kurashlar, vatanparvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, kelajakka yaqqol ifodalangan. Buni "Alpomish", "Yakka Ahmad", "Rustamxon",

“Murodxon”, “Oysuluv”, “Shirin bilan Shakar”, “Kuntug‘mish” kabi dostolarida ko‘rish mumkin. Chunki bu dostonlar, avvalo, xalq pedagogikasining tarkibiy qismini tashkil etib, ularda oila va bola tarbiyasi, kelin-kuyov mas’uliyatli va burchi, ota-ona va o‘zgalarga hurmat tuyg‘usi, do‘stlik va hamkorlik, xayru sahovat va mehmonnavozlik, sevgi va sadoqat, jasurlik va qahramonlik fazilatlari kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ulug‘langan. Misol uchun bu dostonlarda qanday milliy qadriyatlar o‘z ifodasini topganini ko‘zdan kechiraylik.

“Rustamxon” dostoni Oqtosh viloyatining bahodiri Rustamxonga bag‘ishlangan bo‘lib, uning kundoshlar tuhmatiga yo‘liqqan onasi Huroyimni jallodlardan qutqarish yo‘lidagi jasurligi va onasi bilan o‘z yurtidan boshini olib ketgan davridagi g‘aroyib va hayotiy sarguzashtlari tasviridan iborat. Dostondagi tarbiya vositalaridan biri shuki, unda xalqimizning ayolga samimiy munosabati, onaga nisbatan hurmat va e‘zoz, onalik va bolalik baxtu iqboliga bo‘lgan mehru muruvvati g‘oyat hayajonli lavhalarda tasvirlangan. Masalan, otasi Sultonxon podsho buyrug‘i bilan 300 jallod tomonidan onasi Huroyimning Mansur doriga haydab ketilganligini eshitgan o‘n to‘rt yoshli Rustamxon otni egarlab, jang asboblarini ilib, ikki tozisini yo‘lga solib, jallodlar ketidan quvlab boradi va ularga qarshi jangda katta g‘ayrat-matonat ko‘rsatadi. Dostonda begunoh onani-tuhmatga yo‘liqqan Huroyimni qutqarish, unga omonlik tilash yo‘lida xalqning diniy qarashlari, islom g‘oyalari bilan bog‘liq tasavvuridan ham g‘oyat o‘rinli foydalanilgan. Avvalo uch xotindan ham farzand ko‘rmay, shohlik shavkatini ham tashlab ketishga rozi bo‘lgan Sultonxon diniy udumga ko‘ra, so‘fi-darveshlardan fotiha olgandan keyin, “hademay Huroyim degan o‘rtancha xotini homilador bo‘lib qoladi”. So‘ngra xalqning diniy tushunchasiga ko‘ra, Mansur dori begunoh tuhmat bilan o‘ldiriladigan kirishilar uchun qurilgan. Shu bois Huroyimning begunoh o‘ldirilishini istamagan xalq xudoga iltijosini Huroyim tilidan shunday izhor etadi:

*“...Senga osilgandir tuhmatning bari,
Begunoh quridi oyimning sho‘ri,
To‘rt ming gaz ko‘taril Mansurning dori,
Otganda etmasin jallod arqoni!*

... Huroyim bu so‘zni aytib bo‘lgandan keyin dor shiqirlab, poyidan qo‘zg‘alib ko‘tariladi. Dor ham endi bu tuhmatdan xazar qiladi...”⁴

Dostonda sharqona tarbiyaning yana bir ko‘rinishi farzand odob-axloqi, mehr – shavqati va burchining ota-onaga itoatida, hurmat qilishida, gap qaytarmasligida namoyon bo‘lishidir. Chunonchi, Rustam zolimlarni yengib, onasini eson-omon ko‘rgandan keyin, endi Oqtoshga qaytamizmi, deb onasidan maslahat so‘raydi. Onasi shunday javob qaytaradi:

*“Meni desang Oqtosh elga bormayman,
Otangning diydori qursin, ko‘rmayman,
Qaytib borib, bu ish esimga tushib,
Sira, bolam, burungiday bo‘lmayman....*

Rustam esi kirib qolgan, kitob o‘qib har gapning ma’nosiga tushunadigan bo‘lgan, serfahm, aqli ko‘p yigit edi. Enasining so‘zlarini tinglab, ma’nosiga tushunib, enasining gapi ma’qul bo‘lub: . Ena, unday bo‘lsa ixtiyor senda-da. Sen shu gaplarni aytding; men otamning qoshiga bormayman, sendan ayrilib qolmayman. Tirik bo‘lsak, bir tepada, o‘lik bo‘lsak bir chuqurda. Endi sening hayoling qayerda bo‘lsa, mening ham hayolim shu yerda, dedi”.

Ona va bola o‘rtasidagi shu birgina samimiy muloqotdan ajdodlarimizdan meros qolgan hurmat, mehr-muhabbat qoidalari targ‘ib etilgani yaqqol ifodalangan. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, bunday ota-onaga, kattalarga hurmat qoidasi asosini e‘zozlash, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, xizmatga tayyor turish, avaylash, ma’qullash, to‘g‘ri maslahat berish, ranjitmaslik, samimiy va iltifotli bo‘lish kabi muhim insoniy fazilatlar tashkil etishi ta’kidlangan. “Rustamxon” dostonida bunday ma’naviy qadriyatlar

⁴ “Rustamxon”, 386-387-sahifalar

va milliy anʼanalarni unda tasvirlangan barcha voqea-hodisalar va obrazlarda koʻrish mumkin. Zotan, dostonning asosiy gʻoyaviy yoʻnalishi ham – ona yurtga muhabbat qoʻyish, oddiy kishilarga muruvvat koʻrsatish va yaxshilik qilish, dushmanga nisbatan gʻazab va nafrat bildirish, olijanob ezgu niyatlar yoʻlida qatʼiyat, dovyuraklik va jasurlik koʻrsatish, katta yoshdagi kishilarga jumladan, ota-onaga mehr-shafqatli, muruvvatli, sahovtli boʻlish, insonlar oʻrtasidagi birodarlikni ulugʻlashdan iboratdir.

“Murodxon” dostoni oʻzbek xalq ijodining muhabbat mavzusini kuylovchi eng nodir asarlaridan biridir. Doston syujetini Oqtosh mamlakatining podshosi Murodxonning unga bir koʻrinish bergan Orzigul parini sevib qolishi, oila qurish maqsadida uni izlab, uzoq yurtlarga ketishi, qahramonliklar koʻrsatib, maʼshuqasining visoliga etishuvi tashkil etadi. Shu bois dostonda ilgari surilgan asosiy gʻoya – har qanday ezgulik, oliyanoblik, doʻstlik, vatanparvarlik, qahramonlik, dovyuraklik faqat sof sevgi tufayli amalga oshishini, faqat muhabbatgina inson kamolotini, maʼnaviy qiyofasini belgilab berishini va u yovuzlik, yomonlik, adolatizlik ustidan tantanani taʼmin etuvchi kuch ekanini koʻrsatishdan iboratdir. Masalan, Murodxon na mamlakati, na nomu nishonidan darak bermagan pari – Orgzigulni izlab, kimsasiz, suvsiz choʻlu biyobonlardan oʻtadi, “borgan odam qaytib yurtni koʻrmagan” baland va xavf – xatarli togʻlardan oshadi, boshi va oxiri koʻrinmaydigan Xunxor daryosidan uch oyu oʻn kun deganda kechib oʻtadi. Nihoyat Koʻlquduq mamlakatining podshosi Oqilxon bilan tanishib uning yordamida Orzigulni yurti Guliston mamlakati ekanligini bilib, yana yoʻlga tushadi. Koʻp beklarni halok qilgan “juda zoʻrabor” Afsar devni yengib, u bilan doʻstlashadi va dev taqdim etgan falang otda koʻkka uchib, Guliston mamlakatiga boradi. Orzigulni olib, Afsar devning manziliga qaytib keladi. Ketidan oʻn ikki ming lashkar bilan quvib kelgan Qiron shoh lashkarlariga qarshi yakka oʻzi jang qilib, uni yengadi va shohning rozi-rizoligini olib, Oqtosh yurtiga omon-eson yetib keladi. Ana shunday voqealar rivoji davomida xalqimizning haqiqiy sevgi, mehru vafo, doʻstlik,

samimiylik, olijanoblik, mardlik, bahodirlik, epchilik, uddaburonlik, sabrmatonat, jonbozlik, aql-idroklilik, fahm-farosatlilik, ishonch, sadoqat, saxiylik, odillik, mehmonnavozlik kabi qadriyatlar ulugʻlanadi.

Misol uchun dostonida ajdodlarimizning sharqona odob-ahloqini, feʼlatvorini va muruvvatini ifodalovchi vosita boʻlmish mehmondoʻstlik qadriyati qanday ifodalanganini koʻzdan kechiraylik. Maʼlumki, Sharq xalqlariga xos mehmondoʻstlik eng qadimgi davrlardan mavjud boʻlib, hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan qadriyatlardan hisoblanadi. Chunki mehmondoʻstlik odamga mehr qoʻyish, bir-biriga sahovatli va oqibatli boʻlish, oqkoʻngillilik va olihimmatlilikning yuksak ifodasidir. Buni biz “Murodxon” dostonidagi ijobiy obrazlardan biri – Koʻlquduq mamalakatning podshosi Orzigul parining doʻsti Oqilxon timsolida gʻoyat jozibali tasvirlanganini koʻramiz. Oqilxonning doʻstlikni qadrlashi va eʼzozlashi, doʻst uchun har qanday yaxshilikni, mol-dunyoni ayamasi uzoq yoʻldan piyoda horib-charchab kelgan, ochlikdan holdan toygan, mashaqqat chekkan Murodxonga koʻrsatgan mehribonligida, mehmondoʻstlikning barcha rasm-rusumlariga rioya qilib, izzat-ikrom bilan kutib olganida yaqqol koʻrinadi: “Murodxonning ... koʻnglini xushlab, koʻshkiga boshlab olib borib, ostiga palos tashlab, qirq qiz bekning xizmatida turdilar. Oqilxon ... Murodxonning oldiga kelib, qoʻl uzatib koʻrishib, soʻrashib, dasturxon yozib, har turli taomlardan tortib, koʻp siylab tashladi. Murodxonning oldiga pista, rusta, bodom, har xil alvonda nozu neʼmat narsalardan tortib, oltin kosalariga sharob suzib, Murodxonning koʻnglini xushlab ziyofat ustiga ziyofat, asal ustiga sharbat tortib, maylisni qizitib oʻtira berdi. Hammasi zarli-zarbof kiyimlardan kiyib, Murodxonga jilvalar qilib, koʻnglini olib, nozlar bilan gapira berdi...”.

Shu xilda vaqtixushlik bilan oqshomni oʻtkazib, Oqilxon ertalab mehmon bilan tanishadi, uni maqsadi yoʻlida xizmat qilishiga vaʼda berib, oʻz mamlakatini mehmonga koʻrsatadi. “Oqilxon shahrining yarmini Murodxonga koʻrsatib, past koʻcha, tor koʻcha, rost koʻcha – barini koʻrsatib, guliston

chorbog‘lariga iyartib, shunday dumog‘ni chog‘ qilib, shul kechani o‘tkardi. Shul kecha o‘tdi, xo‘p yaxshi qildi xizmatdi, oqshom yotdi. Tong otdi. Kun choshkua haddiga etdi. Shunda Oqilxon qirqin kanizlariga buyurdi: - Qora qashqa tulporni egarlab olib kelinglar! – dedi. ... Bu qirqin qizlar hammasi jam bo‘lib, otning oldiga bordi. Yalang‘ochlab, qashlab, supurib-sidirib, ... otning ustiga tilla, zarli-zarbof abzallarni solib, turli po‘pak-tillalarni taqib, otni bezab, tilla yuganlarni urib, har xil kashtali tillaning suvini yugirtgan davirlarni solib, tilla egarni otning beliga urib, yaxshilab, hamma anjom-abzallarni urib, bezab bo‘lib otning jilovini hammasi ushlab, bu tulpor otni o‘rtaga olib, etaklab, sozlab bora berdi... Shunda Murodxon bu otni ko‘rib, vaqti xush bo‘lib, dumog‘i chog‘ bo‘ldi. Shunda Oqilxon xazinasini ochdirib, podsholik dag‘dag‘a bilan turli sarpolar olib kelib, yaxshi sarpo – bosh oyoq kiyimlardan Murodxonga yoptirdi. Safarning kamchilik asboblaridan Murodxonga berib, har nima yovga kerak bo‘lsa, hammasini tayyorlab, qo‘liga yaxshi tilla dastli qamchin, yaxshi ispixon shamshirlarni ham berdi.

Qizlar uzangini bosib, Oqilxon qiz Murodxonning qo‘ltig‘iga suyab, Murodxon uzangiga oyoq qo‘yib, “bismillo”, deb otga mindi”.⁵

Ana shunday keyin Oqilxon Murodxonga oq yo‘l tilab, fотиha beradi va qirqin qizlariga amr qilib, Murodxonni shahar darvozasidan chiqartirib, yo‘lga solib yubortiradi. Bu parchadan ravshan ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimizning mehmon kutish qoidalari, mehmonnavozlik rasm-rusmlari juda qadimdan mavjud bo‘lib, asrlar osha sayqal topib kelgan xalq dostonlarida, buyuk mutafakkir allomalarimizning asarlarida pedagogik tarbiyaning bir amaliy shakli sifatida bayon etilib, milliy ong va g‘ururni shakllantiruvchi bir tarbiyaviy vosita sifatida hamon davom etib kelmoqda. Zotan, mehmondo‘stlik, qadriyati negizida o‘zbek xalqining insoniylik, samimiylik, do‘stlik, xayrihohlik, saxiylik xususiyatlari, mehmon kutish, kuzatish, sovg‘a tortiq qilish odobi bilan bog‘liq taomillar yotadiki, ularni

⁵ “Murodxon”, 89-90-sahifalar

o‘rganib, umumlashtirib, hozirgi ta‘lim-tarbiya tajribasiga singdirish ilmiy-amaliy mohiyat kasb etadi.

“Shirin va Shakar” dostoni ham o‘zbek xalq epik ijodiyotining yaxshi bir namunasi bo‘lib, unda oila va bola tarbiyasi, ota-onaning bola tarbiyasi uchun mas‘uliyati va burchi, farzandga nisbatan dili pokligi va mehr-muruvvatligi muammolari xalq orzu-havasi talqinida hal etiladi. Chunonchi, doston syujeti afsonaviy Quyonqi yurtining podshosi Qosimxonning sakson xotinlaridan biri – Bo‘tako‘zdan bir o‘g‘il, vazirning xotini ham bir o‘g‘il tug‘ilishi bilan boshlanadi. Biroq vazirning xotini o‘lib, o‘g‘li etak ostida qoladi. Bo‘tako‘z vazirning bolasini ham emizib, parvarish qiladi. Podshoning o‘g‘liga Shakarbek, vazirning o‘g‘liga Shirinbek deb nom qo‘yib, ular aka-uka bo‘lib o‘sa beradilar. Ular etti yoshga etib, savodxon bo‘lib, birinchi ovga chiqqanlarida tuhmatga yo‘liqadilar: o‘gay onalari Kenjaoyim o‘zining epchi g‘ozini ovlagan Shirin bilan Shakardan ranjib, Qosimxonga o‘g‘ilining meni zo‘rladilar, deb shikoyat qiladi. Natijada ular otalarining amri bilan Mansur doriga osib o‘ldirishga hukm qilinadi. Dostondagi bundan keyingi voqealar davomida Shirin bilan Shakarning pirlari Alovxo‘ja yordamida dor ostidan qutulib, o‘z ota yurtlaridan bosh olib ketganlari, uzoq mashaqqatli sargardonlikdan keyin Chibich cho‘liga kelib qolganlari, bunda baland Zil tog‘i etagida Xoliyor bobo ismli bir chol bilan topishib, undan bu tog‘ ichida Gulgun pari borligini, Qoraxon shoh parining xushtori ekanini, lekin parini daxshatli ajdar qo‘riqlab yotgani uchun bu yerda har yili son-sanoqsiz shoh lashkari qirilib ketayotganini bilib oladilar. Charchab qolgan ukasini tog‘ to‘shida qoldirib, tog‘ning yuzasiga chiqqan Shakarbek ajdar domiga ro‘baro‘ bo‘ladi va komil piri Alovxo‘jadan madad tilab, ajdarni o‘ldiradi. Ajdarning ikki shohi tilsimi bilan sirli tog‘ ichiga kirib, Gulgun pariga uylanadi. Akasini yo‘qotgan Shirin esa yolg‘iz qolib, to‘satdan yo‘ldan o‘tayotgan qalandalarga qo‘shilib Shakarbekni izlab ketadi. Doston qahramonlarining jangnoma xilidagi sarguzashtlari shundan keyin boshlanadi. Zil tog‘iga bostirib kelgan

Qoraxon shoh lashkarini tor-mor qilishi, soʻng shoh xiylasiga tushunmay, ayyor kampirning tuzogʻiga tushib, sevgan yoridan ajralishi, Gulgun pari maslahati bilan Zil togʻiga kelgan Shirinbek boshliq qalandarlar bilan Qoraxon shoh yurtiga bostirib borib, son-sanoqsiz lashkarni yengishi, shu mamlakatga xon boʻlib, Gulgun pari bilan qaytadan topishishi tasvirida Shakarbekning jasurligi, qahramonligi, olijanoblighi, sevgisiga sadoqati, onasiga muhabbati, ukasiga jigarlik samimiyati va jonkuyarligi, hokimiyatni boshqarishdagi tadbirkorligi va odamlarga gʻamxoʻrligi yaqqol namoyon boʻla boradi. Shu maʼnoda “Shirin bilan Shakar” ham ishqiy, ham insoniy sadoqat, ham qahramonlik sarguzashtlarini oʻz ichiga olgan doston boʻlib, u xalq pedagogikasining hozirgi zamon tarbiyasi uchun ham oʻz qadrini yoʻqotmagan qadriyatlarga gʻoyat boy asardir. Masalan, dostonda oilaviy bir janjal kabi maydonga chiqqan ota-bola gʻavgʻosini koʻzdan kechiraylik. Qosimxon koʻpdan duo olib farzandli boʻlganiga qaramay, koʻp xotinlaridan biri Kenjaoy tuhmati bilan Shirin bilan Shakarni oʻlimga hukm qiladi. Shu oʻgʻillarini tuqqan va asragan Boʻtakoʻz oyimning koʻz yoshlari ham podshoga aslo taʼsir qilmaydi:

*Tilab olgan oʻgʻlin poshsho oʻldirar,
Koʻrib hayron qoldi qancha odamlar...
Hech zamonda shundayin gap boʻlarmi,
Poshsho farzandini dorga ilarmi?*

Hatto Qosimxon qoʻl bergan Alovxoʻja eshon ham Shirin bilan Shakar gunohini tilab kelganida podsho quloq solmaydi:

*Zulm qilma Shirin, Shakar toʻraga,
Alovxoʻja piring tushdi oraga.....⁶*

Shubhasiz, bu xalq ongi, eʼtiqodida ifodalangan diniy orzu va dunyoqarashdir. Maʼlumki, din – ijtimoiy ongning shakllaridan biri boʻlib, tarixiy zarurat sifatida paydo boʻlgan va asrlar davomida yashab, axloq, qonun, turmush hayot tarziga, diniy maʼnaviy qadriyatlarga katta ijobiy taʼsir koʻrsatib

⁶ Shirin bilan Shakar, 24- sahifa

kelgan. Shu ma'noda burungi zamonlarda pirga, eshonga katta e'tiqod qilingan, uning maslahatlari bilan ish tutilgan, hatto buyuk jahongirlar ham o'z piriga itoat etganlar. Biroq "Shirin bilan Shakar" dostonida Qosimxon o'z pirining maslahatlarini ham olmay, o'zining o'ta johilligini, toshbag'irligini ko'rsatadi. Bundan achchig'i chiqqan Alovxo'ja Qosimxonga shunday javob qaytaradi:

Jafolar solarman tandagi jonga...

Sen bejoy teginding menday eshonga.

Hali ham bir Shirin, Shakar hurmati,

Otar edim taxti baxting osmonga...

Haqiqatdan ham, dostondagi butun voqealar rivojida Alovxo'ja Shirin bilan Shakarga rahnamolik qilib, madad berganining guvohi bo'lamiz. (Mansur doriga osllishdan saqlab qoladi. Haqiq tog'ida dallodlar tomonidan boylab tashlangan aka-ukalarning qo'lini echadi, ajdarni o'ldirishga yordam beradi. Bo'tako'z oyimni tinchiantirib, "O'n sakkiz yildan so'ng o'g'ling keladi" deb bashorat qiladi). Otasidan jabr ko'rgan Shirin va Shakarda otaga hurmat, farzandlik mehri bo'lishi mumkinmi? Buni biz Haqiq tog'ida ularni Alovxo'ja pirlari boylovdan halos qilgandan keyin aka-uka muloqotidan bilishimiz mumkin:

Shirin shunday deydi:

Endi ko'rsak Quyonqiday shaharni,

Tirikmiz, enamga bersak xabarni,

Shodu xurram qilsak ul mushtiparni.

Bizlar uchun qonlar yutib qolgandir,

Qora kiyib, hali yig'lab yurgandir.

Shakarbek Shirinning so'ziga shunday javob qaytaradi:

Qursin ota yurt, Shirinjon, bormaymiz,

Balki borsak, bizlar omon qolmaymiz.

Mundan borib burungiday bo'lmaymiz,

Otamning diydori qursin, ko'rmaymiz...⁷

Ko'rinib turibdiki, ular otalaridan yuz o'g'irganlari holda onalarini sadoqat bilan sevadilar, uning farzandlari uchun chekayotgan iztiroblari, ko'z yoshlariga achinadilar, ona diydorini qo'msaydilar. Shakarbek o'zining alamzada onasini o'n to'rt yil mobaynida bir daqiqa bo'lsa ham esidan chiqarmaydi, mudom uning hayoli bilan yashaydi. Hatto Qoraxon davlatini tor-mor keltirib, o'zi xon bo'lib, Gulgun parisi visoliga etishganida ham:

Bir necha enasi tushib esiga,

Shakarning uyqusi qochib ketibdi.

Hamma dardin Gulgunoyga aytibdi;

Yotib edim taxt ustida bul kecha, ...

Shakarbek beva-bechoralarni ko'rganda ham ularni onasiga o'xshatib, achinadi va ularga g'amxo'rlik qiladi. Qoraxon yuborgan ayyor kampirning tuzog'iga ilinishi ham xuddi shunday ko'ngilchanligi, sofdilligi tufaylidir. "Shirin bilan Shakar" dostoni xotimasi sharqona an'ana va tarbiya qoidalari bilan yakunlanadiki, bu dostonning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Shakarbek devlar yordamida bir qo'rg'on yasatib, uni osmon-falakka uchirib, Quyongqi shahri yaqiniga qo'ndirgandan keyin o'z dushmanlaridan o'ch olmoqqa shaylanadi. Bu niyatini u Alovxo'ja eshonga izhor etadi:

Nasib qilsa bedovimni minayin,

Olmos po'lat qayrab qo'lga olayin,

Devlarning barini hamroh qilayin,

Ot o'ynatib Quyongqiga kirayin...

Bir qarashda Shakarbekning bu qarori to'g'riday tuyuladi: axir begunoh farzandlarini hech o'ylamay-netmay, yana o'z pirining nasihatiga ham quloq solmay o'linga hukm qilgan ota jazoga loyiq, albatta. Biroq qadimiy sharqona tarbiya mezonlari bunga yo'l qo'ymaydi. Chunki bu mezonlar mazmunida imon, e'tiqod, hurmat, muruvvat kabi tushunchalar mavjud bo'lib,

⁷ Shirin bilan Shakar, 53- sahifa

ularning negizini diniy madaniyat, islom dini qonun-qoidalari mohiyati tashkil etadi. Bunday sharqona tarbiya talablariga ko‘ra, ota piri buzrukvor, qiblagoh, duogo‘y mo‘tabar zot hisoblanadi. Farzand otaga e‘tiqodli, muruvvatli, samimiy, itoatgo‘y bo‘lishi lozim. Otaning duoyi badi, qarg‘ishi g‘oyat yomon, chunki ona urushsa, qarg‘asa, ko‘krak suti oraga kirib, farzandni asrar, otaning qarg‘ishini qaytaradigan kuch yo‘q. “Ota rozi-xudo rozi” maqoli ham shu bois yuzaga kelgan. Shuning uchun ham Alovxo‘ja eshon islom dini qonun-qoidalari va an‘analaridan kelib chiqib, Shakarbekni murosaga chaqiradi:

Qanday farzand otasiga o‘q otar?

Bu shaharga o‘q otmagin, bek Shakar!

Bu shaharda sening qiblagohing bor.

Qanday farzand otasiga tig‘ tortar?

Demak, xalq o‘z ijodida Alovxo‘ja eshon timsolida yoshi ulug‘ komil insonni, axloq-odobga oid diniy qadriyatlarning donishmandini ulug‘lash bilan sharq xalq pedagogikasida o‘z ifodasini topgan ota-onaga hurmat, qarzdorlik va burchdorlik hissini targ‘ib etgan. Chunki sharqona tarbiya qoidalariga ko‘ra, bu hissiyot talab, pand-nasihat, vijdoniy burch tarzida farzandlarga etkazilgan. Shu bois doston qahramoni Shakarbek o‘z pirining nasihatlariga quloq tutib, “o‘z ra‘yidan qaytdi”, “devlarga javob berdi”, ota-bola ko‘rishib yarashdi.

“Alpomish” dostoni qadim zamonlardayoq o‘zbek xalqi o‘rtasida tarqalgan bo‘lib, xalq shoir va baxshilari o‘rtasida uni kuylash katta san‘at, iste‘dod va mahorat hisoblangan, uni kuylaganlar esa alohida hurmat-e‘tiborga va nufuzga ega bo‘lganlar. Shu sababli “Alpomish” dostonining variantlari ham ko‘p. Chunonchi, hozirgi kungacha respublikamiz hududida bu dostonning o‘ttizga yaqin varianti yozib olingan bo‘lib, ular ichida eng mukammali, oyaviy-badiiy jihatdan eng yuksagi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1928 yilda yozib olingan variantdir. Shuning uchun ham dostonning shu varianti o‘zbek va rus tillarida ko‘p marta nashr etilib, keng kitobxonlar ommasi tomonidan sevilib o‘qilib

kelinmoqda. Chunki “Alpomish” dostonida xalqimizning qahramonona o‘tmishi-urug‘chilikning yemirilishi davrida chorvador xalqimiz hayotida davlatchilikning paydo bo‘lishi davridagi munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy hayoti, udumlari, axloq-odobi, qardoshlik tuyg‘ulari, kurashi, o‘y-fikrlari, orzu – havaslari yorqin ifodalangan.

Shu bois dostonni kengroq tahlil etib, uning pedagogik qimmatini va tarbiyaviy ahamiyatini ravshanroq bayon etishga harakat qildik. “Alpomish” dostoni ikki qismdan iborat bo‘lib, unda o‘zbek xalqining qabilachilikdan feodalizmga ko‘chish davri, feodalizmning dastlabki kunlari tasvirlangan. Dostonning mazmunidan ma‘lum bo‘ladiki, uning birinchi qismida oila uchun, yor uchun kurash g‘oyasi, ikkinchi qismida esa urug‘ birligi uchun, o‘z elining or-nomusi uchun kurash g‘oyasi ilgari surilgan. Doston syujeti o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Alpinbiyning o‘g‘illari aka-uka Boybo‘ri va Boysarilarning farzandsizlik dog‘ida iztirob chekib yurishi va dostondagi an‘anaviy motivga – diniy e‘tiqodga ko‘ra, xudo Boybo‘riga egiz farzand – bir o‘g‘il va bir qiz. Boysariga esa bir qiz ato etishi bilan boshlanadi. Mana shu farzand ko‘rish voqeasidayoq xalqimizning an‘anaviy udumlari – suyunchi olish, to‘yga tayyorgarlik, maslahat oshi va to‘y o‘tkazish udumlari yorqin ifodalanganini ko‘ramiz. Chunonchi: “... Biylar shul vaqtda ovdan qaytdi; bu yoqdan shul vaqtda farzandlar er yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi. Biylar vaqti ziyoda xush bo‘lib, manziliga kelib joy olib, har tarafga xabar yuborib, to‘y-tomosha qilmoqchi bo‘lib chog‘lanib, sozlanib, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarni yig‘dirib, to‘y qilamiz deb maslahat qildi”.

Shu kichik parchada keltirilgan an‘anaviy xalq udumlarining nechog‘liq hayotiyliigi, xalqimiz ongi va odatiga qanchalik chuqur singib ketganligini ularning hozirgi davrimizgacha yashab, davom etib kelayotganligidan ham anglash mumkin. Demak, insonning kundalik hayotida an‘analar va urf-odatlar, jumladan, to‘y-tantanalari bilan bog‘liq udumlar azal-azaldan katta o‘rin egallab, muayyan davrning, iqtisodiy va siyosiy

tuzumning samarasi hisoblangan. Xalq dostonlarida milliy anʼanalar, urf-odatlar va insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar xatti-harakatlari bilan bogʻlab tasvirlanadi, ular timsolida mardlik, toʻgʻrilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik birinchi oʻringa qoʻyiladi, insoniy qadriyatlar ulugʻlanadi. Masalan, “Alpomish” dostonida sevimli yor, oila va urugʻ birligi yoʻlida koʻrsatilgan mardlik, jasurlik, qahramonlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlar birodarligi, doʻstlik va samimiyat ulugʻlanadi. Xalqning qahramonlik va mardlik haqidagi ideallari, sodiq doʻst, vafoli yor, oqibatli jon-jigar toʻgʻrisidagi orzu-umidlari dostonning asosiy ijobiy qahramonlari Alpomish, Barchinoy, Qorajon, Qaldirgʻoch, Qultoy va Yodgorlar timsolida tasvirlanadi. Xalq ularni oʻz dushmanlariga qarshi kurashda har ishga qodir jismoniy baquvvat, maʼnaviy etuk qahramonlar qilib yaratgan. Masalan, qoʻngʻirot urugʻi boshliqlari Boyboʻri va Boysarining bolalari Hakimbek va Barchin ajoyib-gʻaroyib sharoitlarda tugʻiladi va yoshligidayoq Shohimardon pirim tomonidan unashtiriladi. Hakimbek yoshligidanoq bahodirona ishlarga qodir boʻlib oʻsadi va etti yoshidayoq bobosi Alpinbiydan qolgan oʻn toʻrt botmonli sari yoydan otib, Asqar togʻining choʻqqisini uchirib yuborgani uchun Alpomish nomini oladi va toʻqson alpning biri boʻlib qoladi. Alpomishning asosiy jasorati, qahramonligi zakot talab qilganligi uchun akasi Boyboʻridan arazlab, oʻn besh kunlik masofadagi qalmoq yurtiga – Kashal eliga koʻchib ketgan Boysari oilasi va uning qizi Barchin ustiga bostirib kelgan qalmoq shohi Toychaxon lashkariga qarshi kurashida va ularni tor-mor qilishida yaqqol namoyon boʻladi:

Urush qilgan omon ketmas.

Bu oʻzbek qanday jodugar.

Yo bu kashmirmi, hiylagar?

Hech kim boʻlmadi barobar,

Ursang botmaydi yaroqlar”...⁸

⁸ Alpomish, 158-159-sahifalar

Alpomishning katta afsonaviy kuch-qudrati, qahramonligi dostonning ikkinchi qismida etti yillik zindondan qutulib chiqib, Toychaxon yuborgan lashkarga qarshi bir o‘zi jangga kirib, uni tor-mor qilishda yanada yaqqol ko‘rinadi:

Sermaganda jon qutulmas.

Nechovlarin chopib o‘tdi.

Qalmoq yurtini bo‘zlatdi.

Bunday yurtni izillatdi.

Dostonning ham birinchi, ham ikkinchi qismidagi Qalmoq shoh lashkarlariga qarshi kurashda Alpomishning adolatparvar, oddiy odamlarga jonkuyar va xayrihoh, bechoralarga madadkor ekanini ko‘ramiz. Zero, Alpomish qalmoq yurtiga bosqinchilik qilish uchun emas, balki Qalmoqshoh tomonidan mol-mulki tortib olinib, o‘zi xizmatkor qilingan Boysariga madad berish va uni Boysunga olib kelish uchun boradi. Har ikki holda ham Qalmoq shoh lashkari unga hujum qilgani sababli dushmanga qarshi jangga otlanadi. Demak, adolat uchun, haqiqat uchun kurashadi. Ikkinchi jihatdan bu kurashda Alpomish shu erdagi ilg‘or kuchlarga tayanadi. Bular-Qalmoq yurtining malikasi Tovka va oddiy cho‘pon Qayqubotdir. Ular Alpomish zindonda yotganda va undan qutulib chiqishida katta yordam ko‘rsatadilar. Bunda odamga do‘st bo‘lib, yaxshilik qilishi, sadoqat va muruvvat ko‘rsatishi kerakligi targ‘ib etiladi. Bu ulug‘ insoniy fazilat. Alpomish Toychaxonni mag‘lubiyatga uchratgach, Qayqubotni uning o‘rniga podshoh qilib tayinlaydi va taxtni egallashini qonunlashtirish uchun Toychaxon qizi Tovkani Qayqubotga xotinlikka olib beradi. Alpomishdagi chinakam insoniy fazilatlar, uning zulm va razolatga qarshi kurashi, jasur va jismoniy baquvvatligi qalmoq pahlavonlaridan biri Qorajon bilan do‘stlashishiga sabab bo‘ladi. Masalan, Qorajon Alpomish bilan do‘stlashib o‘z uyida mehmon qilib turganda onasi Suxayidning mehmonni yoqtirmay aytgan gaplariga javoban shunday deydi:

To o‘lguncha yaratganga rost bo‘ldim,

O'z fe'limdan cho'pu xastdan past bo'ldim.

Xudoni o'rtaga solib do'st bo'ldim,

Kelgan mehmon sening o'g'ling bo'ladi.

Unday desang, ena, ko'nglim qoladi...⁹

Bu so'zlarning o'ziyoq Qorajonning Alpomishga samimiy va sodiq do'stligidan, unga hech qachon hiyonat qilmasligidan dalolatdir. Haqiqatdan ham dostonda tasvirlangan voqealar shahodatiga ko'ra, Alpomish bilan Qorajon do'stligi adolat va haqiqat, ozodlik va tenglik, inson huquqi va nomusi uchun kurashda borgan sari mustahkamlanib, Barchin shartlarini bajarishga, qalmoqlarning to'qson alpini engishga, Barchin yorini olib, o'z yurtiga keltirishga madad beradi. Masalan, Barchin qo'ygan shartlarning ikkitasini Alpomish nomidan Qorajon bajaradi: qirq besh kunlik poygada qatnashib, qalmoq alplarining jabr-zulmiga qaramay, birinchi bo'lib etib keladi: bir kam to'qson alp bilan kurash tushib, barini yengadi. Dostonda ana shu kurash lavhalari g'oyat jonli va jozibali tasvirlangan. Chunonchi, Qorajon bilan alplar kurashidan bir lavhani ko'zdan kechiraylik:

...Achchiqlanib tag'i qalmoq keladi,

Qorajonning ishin bari ko'radi...

Shunday qalmoq kelib kirdi maydonga,

Jafolar solgandir tandagi jonga.

Dostonda Qorajon obrazi orqali turli elatlar o'rtasidagi insoniy fazilatlar-sadoqat, samimiyat, mehru vafo, jonbozlik, qat'iylik ulug'langanini ko'ramiz. Alpomishning qahramonlik ishlariga yori Barchin va singlisi Qaldirg'och kabi etakchi ayollar obrazi ham madadkorlik qiladi. O'z elati va yurtiga muhabbat, o'z oilasi, yori va jon-jigarlariga sadoqat, mustaqillik va jasorat bu obrazlarning ichki mohiyatini tashkil etadi. Ular yuksak insoniy fazilatlari, aql-farosati, o'rinli va keskin xatti harakati, jasur va qo'rqmasligi, tadbirkorligi bilan Alpomish va Qorajonni qahramonlikka undaydi. Chunonchi, Barchin g'oyat yoshlik chog'idayoq erkin fikr yuritadigan, ota-

⁹ Alpomish, 97-98-b

onasini xatti-harakatiga norozilik bildirishga o'zida jur'at topadigan obraz sifatida namoyon bo'ladi. O'n ming uyli Qo'ng'iroq urug'ini Kashal yurtiga ko'chishini ko'pchilik ma'qullab turgan bir paytda, Barchin bunga qarshi chiqadi. Bu harakati bilan u Alpomish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. Chunki Boysari boshliq o'n mingli Qo'ng'iroq urug'i Boybo'riga zakot to'lashdan bosh tovlab, Kashal yurtiga ketayotgan edi, ular zakotga qarshi edi. Barchin esa elni ko'chmaslikka targ'ib qilar ekan, u Boysariga zakot to'latib, shu erda yashash tarafdori. U qalmoq yurtiga ko'chish yomon oqibatlarga olib kelishini oldindan sezib, bu ishda onasini ayblaydi va undan madad so'raydi:

*O'yilmay qo'ymasin kulbai jonam,
Oh urib yig'laydi mendayin sanam.
Qalmoqda qolarda guldayin tanam,
Xuja kelsa chiqar murid vaziri,
Xotin bo'lmasmikan erning vaziri?!*

Bu lavhada qadim-qadimdan o'zbek oilasida ayol erning o'ng qo'li, maslahatgo'yi, "yarim pir", "jufti halol" degan milliy an'ana, xotinga ishonch va sadoqat udumi ifodalangan. Barchin mardlik va dovyuraklikda, o'z kuch – qudratini namoyon qila bilishda Toychaxon alplariga teng keladigan botir, jismoniy jihatdan etuk, alp va go'zal qiz sifatida tasvirlanadi. Chunonchi, to'qson qalmoq alpidan biri Ko'kaman Barchin o'toviga kelib, ota-onangni o'ldirib, "men seni zo'rlikman olarim bordir" deb do'q po'pisa qilganida, Barchin unga shunday dadil javob beradi:

*Haq so'zimni ola berding qiyoma,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama.
Meni olmoqqa haddin bormi, qalmoqlar,
O'z yo'lingga bora bergin, badbaxtlar...*

Doston syujetidagi bundan keyingi voqealar tasviri Barchin aytgan so'zlar quruq do'q bo'lmay, haqiqat ekanini tasdiqlaydi. Zotan, dostonda tasvirlangan Barchin Qaldirg'och va boshqa obrazlar afsonaviy bo'lmasdan,

oʻtmish hayotining tarixiy negizi asosida yaratilgan ideal obrazlardir. Shu maʼnoda Barchinning oʻz taqdirini oʻzi hal qilishi uchun boʻlgan intilishlari qabilachilik davridagi matriarxat hayotining davomidir. Barchinning voyaga etishi bilan oilada unga beriladigan huquq, turmush yoʻldoshi tanlash erki, jamoat, xalq hayotida faol qatnashish, ota-onasiga oʻz fikr-mulohazasini aytish voqealari uning koʻchmanchi xalqlar qizi ekanidan darak beradi. Masalan, Boysari qalmoqlar yurtiga koʻchib kelganidan keyin, qalmoq shohining toʻqson alpi Barchinga sovchi boʻlib kelganda, avval qarindoshlaridan maslahat soʻraydi. Ular, bu erga oʻzing boshlab kelding, endi “tortinmay bera ber qizingdi” deb maslahat berishadi. Boysari nima qilarini bilmay turganda, qizi Barchinoy unga murojaat etadi:

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,

Maslahat berdi-ku qavm qaridoshing...

Eshitmagin qarindoshlar soʻzini,

Kuyov qilsin toʻqson alpning oʻzini, ...

Bu gap Boysariga maʼqul boʻlib, “Oʻng ming uyli Qoʻngʻirotdan chiqarib, Barchinni oʻtovini koʻtarib, ovloq tepaning boshiga chiqarib qoʻydi. Bul oʻtovda qirqin kanizlari bilan Barchin oʻtirdi”. Shunda sovchi boʻlib kelgan toʻqson alpni Barchin ixtiyoriga yoʻllab, Boysari shunday dedi: “Biz maslahat qilib, yil agʻdarib koʻrdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi oʻn toʻrtga chiqqan ekan, bizning oʻzbekning rasmi shunday boʻladi, qiz oʻn toʻrtga chiqqan soʻng ixtiyori oʻzida qoladi, bizning aytganimizga koʻnmay, tepaning boshiga oʻtovini tikib oʻtiribdi, oʻziga boringizlar, oʻzidan soʻrangizlar, biringizga tegarmi, baringizga tegarmi, oʻzidan soʻrab bilingizlar...”

Shoir Barchinni jamiyatning teng huquqli aʼzosi sifatida kuylab, uni jismoniy baquvvat, uzun boʻyli, barvasta qiz kabi tasvirlaydi. Shuning uchun ham Barchin oʻz huquqini yaxshi biladi, oʻz elida qolgan suyukli yori – Alpomishga eʼtiqod bilan umid bogʻlaydi va sovchi boʻlib kelgan alplarga dadil javob qaytaradi:

*Xabar etsa alp Alpomish kelmasmi,
Qalmoqlarga qiyomat kun bo'lmasmi,
Armon bilan senday alplar o'lmasmi,
Holing bilib, to'g'ri yursang bo'lmasmi?!*

Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alp turib aytdi: . O'zbekning qizining dami baland ekan. Ko'kaman! Tushib sudrab chiq bu yoqqa! Ko'kaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, bogona qimiz so'rab alamzada bo'lgan, uyning ichkarisiga kirgan. Barchinning kanizlari qo'rqib, uyning to'rida to'planib turgan. Barchin ibo qilib teskari qarab turib edi, Ko'kaman ali Barchinning burumidan ushlab, poygaga qarab torta boshladi. Barchin o'zini o'ngarib, qo'lini uzatdi, bir qo'li Ko'kamanning yoqasiga etdi, bir qo'li bilan belbog'idan tutdi. "Yo pirim", deb ko'tarib, chalqarmon qilib erga qo'ydi. Chap tizzisini ko'kragiga qo'yib turdi. Og'zi burnidan dirak-dirak qon keta berdi.

Bu lavhada Barchin obrazi afsonaviy qahramon sifatida ideallashtirilib, zo'rlik ko'rsatishga uringan dushmanga qarshi unda g'ayritabi'iy bir kuch paydo bo'lganligi tasvirlangan. Bu kuch faqat jismoniy kuch bo'lib qolmasdan, ma'naviy kuch hamdir. Inson qatorida yashash huquqiga ega bo'lgan Barchinga shu ma'naviy erkinlik katta jismoniy kuch bag'ishlaydi. Shu bilan birga, Barchin hayotiy obraz: u oddiy inson bolasi, adolatli, insofli, diyonatli ayol. U Ko'kaman alp uchun o'ch olishga hozirlanib, otdan tap-tap tushayotgan alplarni ko'rib, aql-farosat bilan ish tutadi, alplarning zo'ri Ko'kaldosh ekanini bilib, undan olti oyga muhlat so'raydi va bu bilan alplarning hujumini qaytaradi. Doston voqealari davomida Barchin obrazi yanada takomiliashib, uning insoniy fazilatlarini, adolatparvar va haqiqatgo'yiligi ochila boradi. Masalan, qalmoq alplaridan so'ragan olti oylik muhlat to'lganda Qo'ng'iro't elidan yori Alpomish keladi. Biroq Barchin Alpomish keldi deb, uning etagidan ushlab, ergashib ketavermaydi, balki hamma alplarga, ham Alpomishga to'rt shart qo'yadi, shu shartlarimni bajarganga tegaman, deb va'da beradi. Bu bilan unga ishongan va olti oy davomida zo'rlik

qilmay kutgan alplar ishonchiga sazovor bo‘ladi. Va’da ijrosi bilan chiroyli degan qoidaga amal qiladi. Shu bilan o‘z yoridan ham mardlik, jasorat, dovyuraklik ko‘rsatishni, dushmanlarni qoyil qoldirishni, tan berdirishni istaydi. Buni biz Barchinni Alpomishga do‘st tutinib, uning nomidan sovchi bo‘lib kelgan Qorajonga aytgan so‘zlaridan aniq anglab olami:

“Barchin aytdi: - Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb men Alpomishning etagidan ushlab, ketaberayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi, otini o‘zdirgan odam oladi. Har kimning o‘z ko‘ngli o‘zida qoladi. Mening to‘rt shartim bor, shu to‘rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlarning biri qilib olsin”.

Dostonda Alpomish, Barchin va Qorajon obrazlarida ifodalangan yorga muhabbat va sadoqat, do‘stlik va samimiyat, qahramonlik va jasurlik, o‘z eliga mehr va vatanparvarlik g‘oyalari Qaldirg‘och, Qultoy, Yodgor va boshqa obrazlar timsolida yanada takomillashtiriladi. Chunonchi, Qaldirg‘och obrazi aka va singil o‘rtasidagi jon-jigarlik munosabatlari nechog‘lik iliq, samimiy, halol, to‘g‘ri, mehribon, talabchan, kuyinchak, da‘vatkor bo‘lishi lozim ekanligini ko‘rsatuvchi yorqin bir hayotiy namunadir. Axir chechasi (ya’ni yangasi) Barchinning qalmoqlar yurtida toy-talashda qolganligidan xabar topgan Qaldirg‘och akasini darhol yo‘lga otlanishga undaydi, sustkashlik qilgani uchun narmoda deb unga tanbeh beradi, “mard yigitning yori talash bo‘larmi” deb akasini uyaltiradi, yo‘lga soladi. Bu sevgi yo‘lida barcha sinovlarga bardosh berishga, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan fidoyi bo‘lishga, kerak bo‘lib qolsa, mardlik, jasurlik va qahramonlik ko‘rsatishga chorlaydi.

Qaldirg‘och obrazida ifodalangan yuksak insoniy fazilatlar doston syujetidagi butun voqealar davomida yanada sayqallanib boradi. Chunonchi, akasi Alpomish ikkinchi marta qalmoq yurtiga Boysari amakisini qutqarish uchun borganida Surxayl maston tuzog‘iga ilinib, zindonga tushib qoladi. Bu xabarni eshitgan Qaldirg‘ochoyim akasining o‘rniga podsho bo‘lgan

Ultontozning zugʻumidan qoʻrqmasdan, Olatoqqa surgun qilingan Qorajonga xabar berib, Alpomishni zindondan qutqarish uchun joʻnatadi. Akasining oʻlganligi haqidagi xabarga ishonmaydi, qiyinchiliklarga chidab, Bobir qoʻlida tuyalarni boqib yuradi. Akasidan yodgor boʻlib qolgan yakka farzandi Yodgorni parvarish qilib, uning tarbiyasi bilan shugʻullanadi. Bunda Qaldirgʻoch obrazi orqali xalqning bardosh, sabr-toqat, umid, kelajakka ishonch, mehnatsevarlik, bolaparvarlik kabi yuksak insoniy hislatlari ulugʻlanadi. Bunday fazilatlar mardlikka qanot, harakat dasturi, kulfatdan, gʻam-alamdan qutqaruvchi vosita boʻladi. Dostonda kishilardagi baxillik, badnafslilik, ikkiyuzlamachilik, boshqalarni kamsitish shuhratparastlik, nomardlik, vijdotsizlik kabi eng yaramas illatlar ham tanqid qilinadi. Boyboʻrining Bodom choʻridan boʻlgan Ultontoz degan oʻgʻli Alpomish Kashalga ketib, koʻp yillar daraksiz yoʻqolgach, Ultontoz shoshqaloqlik bilan Qoʻngʻirot elida oʻzini podsho qilib koʻrsatib, darxol qilik xizmatini unutadi. Oʻzining otasi Boyboʻrini xizmatkorga, uning xotinini choʻri qilib qoʻyadi. “Alpomish” dostoni turkiy xalqlar oʻrtasida keng tarqalgan va sevib kuylanadigan asarlaridan biri boʻlib qoldi. Bu doston qahramonlik va goʻzailik, doʻstlik va birodarlik, vafodorlik va sodiqlik haqidagi xalq ideallarini ifodalagan asar sifatida qimmatlidir. Shu bois keyinchalik uni mustaqil ishlash natijasida uning mazmunini, uslubi va yoʻnalishiga yaqin dostonlar yaratildi. Jumladan, Ergash Jumanbulbul baxshi ogʻzidan yozib olingan “Yakka Ahmad” dostoni ham ana shunday bevosita “Alpomish” dostoni taʼsirida yaratilgan asar boʻlib, unda ham qahramonlik yoʻnalishi ustun turadi. Bu doston mazmuni ham Doʻrmon elining hokimlari, aka-uka Qoraxon va Sarixonlarning farzandsizlik dogʻida kuyganligini va aka-ukalarning: “agar bizlardan farzand boʻlsa... birovi qiz boʻlsa, birovi oʻgʻil boʻlsa, quda boʻlaylik” – deb ahdlashganligini tasvir etishdan boshlanadi. Soʻngra ularning farzandli boʻlishi, Qoraxonning oʻgʻliga Ahmadbek, Sarixonning qiziga Oqbilak deb ism qoʻyilishi, qurgʻoqchilik yili aka-ukalarning suv talashib, Sarixonning oʻziga tobe oʻn ming uyli Doʻrmon urugʻi bilan Eronga koʻchib

ketishi, Sarixonning Oqbilakka uylanmoqchi bo'lgan Eron shohi Kubodshoh bilan kelishmay qolishi, Aqbilakni shohdan bir yilga muhlat so'rab, Ahmadbekka xat yo'llashi, Ahmadbekning o'z yorini qutqarish uchun Eronga o'tlanishi va yo'ldagi mashaqqatli, g'aroyib sarguzashtlari hikoya qilinadi. "Yakka Ahmad" dostonida yuksak muhabbat, insonparvalik, ornomus va sadoqatlilik fazilatleri, xalqning insoniylik haqidagi orzulari bosh qahramon Ahmadbek timsolida yaqqol ifodalangan: Ahmadbek oddiy, hokisor, pok, halol, oriyatli inson. U o'z yoriga sadoqatli, jonkuyar va vafodor oshiq. U Oqbilak-yorining xatini olib, uning hayoti xavf ostida qolganini bilgach, hech ikkilanmay, darrov Eronga safarga o'tlanadi. Otasining uning safarga chiqishiga qarshilik qilib, Do'rmon qizlari orasidan "olib beray Oqbilakdan yaxshisini", - degan so'ziga shunday javob qiladi:

...Mard yigitga davron ikki kelmasmi,

Mard o'lsa, xaqini dushman emasmi.

Yori ketsa dushmanlarning qo'liga,

O'ylagil, otajon, o'lim emasmi?!

"Yakka Ahmad" dostonida do'stlikning ulug'vorligi, uning beg'araz maslahatgo'yiligi, qiynalganda rahnamo ekanligi g'oyat jozibali tasvirlangan. Buni biz dostonida Ahmadbek bilan Balx shaxzodasi Ernazar va qirq ayyorning biri Alimuhammad do'stligida ko'ramiz. Ernazar qirq yigit bilan ovga chiqqanda, zangilar tutib olib, baland rabot ichida katta yakka mixga bog'lab tashlaydilar, yigitlarini g'orga qamab qo'yadilar. Ahmadbek ularni qutqarish uchun jasorat va mardlik ko'rsatadi. Ernazarning unga mening kasofatinga qolib o'lib ketish, bu ajalxona, jallodlar makoni, deb iltijo qilishiga qaramay, Ahmadbek, "mard o'g'lon hamrohini tashlab ketarmi?" deb qo'liga isfaxon qilichini oladi va zangilarni o'ldirib, Ernazar hamda uning yigitlarini ozod qiladi. Ahdga vafo qilish, do'stlik burchini ado etish azal-azaldan xalq orasida e'zozlanib kelinayotgan an'anadir. Chunki inson va'dasiga vafo qilib, ahdini, burchini bajarar ekan, shu xatti-harakatidan, avvalo o'zi faxrlanadi, el nazarida, do'stlari orasida e'tibori, izzat obro'yi

oshadi. Ana shu hayotiy haqiqat dostonida ko'p ijobiy obrazlar orqalig'oyat jozibali tasvirlangan. Chunonchi, Ernazar o'z xaloskori Ahmadbek oldidagi burchini, sodiqlik ahdini bajarishga zo'r fidoiylilik, mardlik, xokisorlik, muruvvat ko'rsatadi. Avvalo Baxil pari unga Xonchorboqda Ahmadning olamdan o'tganligini, otasi Qoraxon, enasi va singlisi Qaldirg'ochoyim o'g'li dog'ida shu cho'llarda bo'zlab xoldan toyib yurganligini bildirgandan keyin, darhol o'zining qirq yigiti bilan o'tlanib, ularni izlab ketadi, hushidan ketib yerda ag'anab yotgan Qoraxonga, uning xotini va qiziga madad beradi. Ernazar Ahmadbekka qarshi jang e'lon qilgan Qubodshohning sonsiz lashkariga qarshi jangga o'tlanib, birinchi kuniyoq katta polvonlaridan yetmishtasini o'ldirib, lashkarga hujum qiladi: "...Anda Ernazarxon saflarni buzib,, shovqin berib, yakka-tanho ot qo'ydi. (Dushmanning) bo'yni qaltirab, Ernazar mardga qarab: "Hov, bir odam shuytami, bu nima degan gap bo'ldi?"- deb qo'rqishib, bir xili aytadi: "Albatta, o'ziga ishonch bo'lmasa, shuncha qo'shinga bir o'zi ot qo'yami?" Anda Ernazarxon kechgacha yakka-tanho uch mingcha odamni o'ldirib, maydondan omon-eson chiqib, Ahmadbekka ta'zim qilib turdi..."¹⁰

"Yakka Ahmad" dostonida ayollarga xos insoniy fazilatlar mehr bilan tasvirlangan. Ahmadbekning onasi onalik muhabbati bilan to'lib toshib, yolg'iz Ahmadbek o'g'lining o'lganligini eshitib, "oh tortib, suyaklarini qaqshatib, bandi bugimini bo'shatib, ko'ngli buzilib, yoshi tizilib, o'g'lini izlab tog'u toshlar kezadi, singlisi Qaldirg'ochoyim akasining nobud bo'lganini bilib, piyodalab yuradi, ko'zdan yoshi bulutday tinmay yog'ib" bag'rin dog'lab safarda elib-yuguradi. Oqbilak o'z sevgilisiga vafodor, sadoqatli bo'lib, sevgi yo'lida oqillik, iroda, qat'iyat, tadbirkorlik bilan ish ko'radi. Oqbilak maktabda o'qigan chog'laridayoq o'z to'rasi Ahmadbekni sevgan, unga mehr qo'ygan. Oqbilakning Ahmadbekka bo'lgan munosabati, ichki his-xayajon va qalb nidosi Boboayyorning yigirma yigiti bilan Sarixonni masxara

¹⁰ Yakka Ahmad, 285-b.

qilib, ziyofatini yeyish uchun Ahmadbekdan “Sovchi” bo‘lib kelganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Sarixon “quda”larni ochiq ko‘ngil bilan qabul qilib, ziyofatga hozirlik ko‘rayotgan bo‘lsa ham, Oqbilak farosati va ziyrakligi bilan ularni turqi ssovuqligini, so‘zlari hiyla ekanini va “dushman kishilar” ekanihi darrov payqaydi. Ayniqsa Boboayyorning belidagi ro‘molcha o‘z to‘rasiga o‘zi tikib bergan sovg‘asi ekanihi tanigach, bu “quda” bo‘lib kelgan kishilarning dushmanligiga, to‘rasi armon bilan o‘lib, ro‘mol o‘lja bo‘lganihi fahmlab etadi. Bu dushmanlarga to‘rasining Bo‘ztlarlon oti o‘lja bo‘lgahini ko‘rgach, zor-zor yig‘lab, otasini dushmanlardan o‘ch olishga da‘vat etadi. Oqbilakning o‘z to‘rasiga bo‘lgan otashin muhabbati, mehri, sadoqati, qalb qo‘ri uning alam-iztirob bilan aytgan ichki his-hayajoni yuqorida ravshan ifodalangan:

Men ham endi sensiz turmam dunyoda,

Kun-kunda alamim bo‘lar ziyoda.

Sen bo‘lmasang shirin jonni netarman,

Yoring ham ortingdan borar, shahzoda,¹¹

Demak, Oqbilak obrazida ifodalangan muhabbat tuyg‘usi hozirgi yoshlarimiz uchun ham katta tarbiyaviy saboq bo‘la oladi. Rus yozuvchisi Turgenev ta’kidlaganidek, “Sevgi o‘limdan va o‘lish dahshatlaridan kuchli, faqat sevgi bilan, faqat u tufayligina hayot bor va davom etadi”. “Alpomish” va “Yakka Ahmad” dostonlarida ifodalangan to‘y marosimlari bilan bog‘liq urf-odat va udumlarni xuddi shu nuqtai nazardan ko‘zdan kechirish maqsadga muvofiqdir. Bu dostonlarda bir qancha to‘y tantanalari tasvirlangan. Chunonchi, Boybo‘ri va Boysari hamda Qoraxon va Sarixonlarning farzand ko‘rishlari, Alpomishning etti yillik bandilikdan qaytib, davru davronga sazovor bo‘lishi munosabati bilan o‘tkazilgan va boshqa to‘ylar aks ettirilgan. Misol uchun Alpomish va Barchinoyning nikoh to‘yini ko‘zdan kechiraylik. Alpomish va Barchinoyning nikoh to‘yi juda katta badiiy mahorat bilan tasvirlangan, o‘zbeklarning nikoh to‘ylariga oid qadimiy urf-

¹¹ Yakka Ahmad, 262-263-b

odatlar, udumlar, diniy tushuncha bilan bog‘liq rasm-rusumlar g‘oyat mukammal ta’riflangan. Inson hamma vaqt, har qanday sharoitda umid bilan yashaydi, ezgu, xayrli kunlarni orzu qiladi. O‘tmishda ajdodlarimiz qiyinchiliklarga yo‘liqqanda, boshiga musibat tushganda, g‘am-anduhga botganda ham umidsizlikka tushmagan. “Noumid-shayton” deb qaragan, ollohning marhamati kengligiga umid bog‘lab, xudoga iltijo qilgan, pirlarga,, eshonlarga, din peshvolariga sig‘inib, xudodan madad so‘rab berishni iltimos qilgan. “Alpomish” dostonida Shohimardon piriga ziyoratga borish ham ana shu udumning yaqqol ifodasidir.

Xalq orasida farzandlarning chaqaloqlik chog‘laridayoq unashtirib, voyaga yetganda bir-biri bilan turmush qurish orzusi beshkirti udumi amalga oshirilgan. Yaqin do‘stlar, og‘aynilar, urug‘lar, kelajakda qudachilik, qarindoshchilik iplarini bog‘lash orzusida shu udumga amal qilganlar. Chaqaloqlik yillaridayoq shu udumlar bilan bog‘lanagn Hakimbek, pir duosiga ko‘ra, hech kim teng kelolmaydigan pahlavon alp, o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, o‘q o‘tmas, qilich chopmas mardonavor qahramon bo‘lib etiladi. Alpomishning orzu-armoni ushalib, Barchin yoriga uylanadi. “Alpomish” dostonida tasvirlanishicha, Alpomish bilan Barchinoyning nikoh to‘yi oqsoqol va qarindoshlarni yig‘ib maslahat oshi berishdan boshlanadi. Mehmonlar uchun oq o‘tovlar yoptiriladi. So‘ng qo‘yu so‘qimlar so‘yiladi, o‘choqlar kovlanib doshqozonlarda osh damlanib, “kunda hamma qolmay oshga to‘yadi”. Bir tomonda beshta-o‘nta uloq tashlab, musobaqa boshlanadi, ikkinchi tomonda ko‘pkari chopiladi, polvonlar kurash tushadi, merganlar yoyandozlik qiladi. Bu musobaqalarda g‘olib kelganlar sovrin, sovg‘a tanga-tilla oladi, chavandozlar katta unum qiladi. To‘yga kelgan mehmonlar sovg‘a-salomlarini olib, uylariga jo‘nab ketganidan keyin kuyv bilan kelinni nikohlash marosimlari boshlanadi. Avvalo kuyovjo‘ralar “kuyovnavkar”lar bir o‘tovda kuyovni o‘rtaga olib, suhbat qurib o‘tirganlarida, ayollar “to‘qqiz tovoq qiladi”, ya’ni laganlarda to‘qqiz xil

taomlar tortib, ularni mehmon qiladi. Odatga ko‘ra, kuyovjo‘ralardan bo‘shagan laganlarga, “tanga tilla solib” chiqariladi. Shundan keyin:

*O‘rtaga o‘t yoqib qizlar turadi,
Salom berib bekni boshlab boradi,
Shu zamonda uyga yaqin boradi,
Uy ichinda katta odamlar turadi.¹²*

Bu o‘rinda kelin bilan kuyovga hikoh marosimiga tayyorgarlik tasvirlanayapti. Mullaning ikki vakili qizning ixtiyori, ya’hi roziligini so‘rab kelganda, u uyalib javob bermaydi. Shunda atrofdagi guvohlar “qiz so‘ylatar” rasmiga ko‘ra, uning ixtiyorihi berishga da’vat etadilar va bu xizmati evaziga “ancha pul” oladilar. Shundan keyin Hakimbek guvohlari bilan kirib, mullaning bir qancha shartlarini qabul qilib, o‘z roziligini beradi, mulla xutba o‘qib, nikoh qiladi. Shubhasiz, yuqorida tasvirlangan to‘yga oid urf-odatlarining ancha qismi hozir unutilib ketgan. Chunki barcha urf-odatlar muayyan davrning, siyosiy va iqtisodiy tuzumning samarasi bo‘lib, ular ana shu davr va tuzumga moslashadi, uning talablariga javob beradi. O‘sha davr kishilarining ma’naviy va madaniy kamolotiga xizmat qiladi. Davr va tuzum o‘zgarishi bilan, odatda, o‘z shakli va mazmuniga ko‘ra, urf-odatlar ham o‘zgaradi. Chunonchi, dostonida ta’riflangan to‘y ma’rakalari bilan hozir o‘tkaziladigan to‘y marosimlarini shu nuqtai nazardan taqqoslab ko‘rsak, ajdodlarimizning ma’rakalar o‘tkazishdagi boy va ibratli tajribalari unutilib borayotganiga guvoh bo‘lamiz. Shuham ta’kidlash lozimki, hozirgi to‘ylarimizda, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitidagi qimmatlilik sharoitida aroq, konyak, pivo kabi kayf oshiradigan ichimliklar ichish odati ma’raka o‘tkazuvchining butun jamg‘armasihi ketkazib, tinka-madorini quritadi. Chunonchi, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol o‘zbek millatining taqdiri haqida qayg‘urib, uning jahon millatlari qatoridan munosib o‘rin olishihi orzu qilgan ekan, buhning uchun to‘ylarimizdagi ichkilikbozlik illatidan qutulish lozimligini, chunki bu illat oqibatida mayib-majruh go‘daklar dunyoga

¹² “Alpomish”, 145-b.

kelishini kuyimib soʻzlaydi: “Mastlik – bu ixtiyoriy jinnilik...Jinnidan sogʻ bola tugʻilganini koʻrganmisiz? Mana sizga oqibat”. “Alpomish” va “Yakka Ahmad” dostonlarida toʻy va maʼrakalar bilan bogʻliq udumlardan tashqari, ajdodlarimizning bir-biriga bogʻliqligi va umumiy anʼanalarini ifodalab kelgan yana koʻplab urf-odatlar taʼrif-tavsifini koʻrish mumkin. Chunonchi, “Alpomish” dostonida oʻgʻil uylantirish uchun xonadonlarga qiz izlab borish, uyda opa yoki aka boʻlsa, singlisini opasidan oldin turmushga bermaslik, ukani akadan oldin uylantirmaslik, sovchilikka borish, sovchilar istagi qanoatlantirilsa, ularga sarpo berish, oq roʻmol oʻratish kabi rasm-rusumlar va udumlar xalq turmushi, bir-biriga anʼanaviy aloqasi, axloq-odob normalari bilan bogʻlab tasvirlangan. Albatta, davrlar oʻtishi bilan bu udumlarimizning baʼzilari unutilgan boʻlsa-da, koʻplari hamon yashab kelmoqda va anʼanaviy aloqalarda ijtimoiy – iqtisodiy vazifalarni bajarib kelmoqda. “Yakka Ahmad” dostonida eng chiroyli va goʻzal tasvirlangan insoniy qadriyatlarimizdan yana biri ota-onaning farzandiga mehr-muhabbati, jon – jigarlik burchidir. Umuman, biz koʻzdan kechirgan “Alpomish”, “Yakka Ahmad”, “Rustamxon”, “Murodxon”, “Shirin bilan Shakar” dostonlarida zoʻr mahorat bilan tasvirlangan ijobiy obrazlar mardlik, jasurlik, qahramonlik, uddaburonlik, samimiylik, sodiqlik va vafodorlik timsoli ekanini koʻramiz. Chunki, bu dostonlar, bir tomondan, haqsizlik, adolatsizlik, zulm, vahshat, xiyonatga qarshi kurashda, mehr-muhabbatni, ota-onalar bilan farzandlar oʻrtasidagi shafqat-muruvvatni, xaq va haqiqatni ulugʻlashda, adolat va haqiqatni engib chiqishiga ishonchni mustahkamlashda, yaxshi insoniy fazilatlarni egallash uchun intilishda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan boʻlsa, ikkinchidan, ajdodlarimiz hayoti va qoniga singib ketgan urf-odatlarni oʻzida qamrab kelgan boy va mukammal bir manba, muhim tarbiya vositasi hisoblanadi. Dostonlarning tarbiyaviy va maʼrifiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, ularda pedagogikadagi tarbiya manbalari hamda vositalarning oʻzaro taʼsiri va aloqasi yaqqol namoyondir. Shu bois ularni toʻplab, umumlashtirib, eʼzozlab, targʻib etib borish hozirgi yoshlarimiz- kelajak

avlodimizning dunyoqarashini kengaytiradi, hayotni to'g'ri tushunishga o'rgatadi, uni o'z davriga munosib barkamol va oliyjanob insonga aylantiradi, ma'naviy sog'lom, madaniyatli, vijdonan va e'tiqodan pok, halol, sadoqatli, vafodor, insonparvar, vatanparvar, adolatparvar, dushmanga shafqatsiz, bilimdon, zukko, tadbirkor, aqlli, sahovatli odam qilib tarbiyalashga yordam beradi.

**III BOB. YOSHLAR TARBIYASIDA DOSTONCHILIK SAN'ATINI
O'RGANISHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-
SINOV ISHLARI NATIJALARI**

**3.1. Pedagogik eksperiment boshida dostonchilik san'ati orqali
o'quvchilarda axloqiy fazilatlarning shakllanganlik darajasini aniqlash.**

Bizga ma'lumki, muayyan ilmiy-tadqiqot doirasida tashkil etilayotgan tajriba-sinov ishlarining puxta ishlab chiqilgan dastur asosida olib borilishi, bu boradagi nazariy g'oyalarning ilmiy jihatdan asoslanishiga, ularning haqiqiy bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida dostonchilik san'atini o'rganishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad xalq dostonlari orqali o'quvchilarda milliy hulq-odob qadriyatlarini singdirilishiga erishish hamda shu asosda ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Tajriba-sinov ishlari oldimizga quyidagi vazifalarning hal etilishini talab etdi:

1. Dostonchilik san'ati orqali o'quvchilarda milliy axloqiy madaniyat haqida tasavvur hosil qilish;

2. Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida dostonchilik san'ati orqali axloqiy madaniyatni to'laqonli shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

3. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda xalq dostonlari orqali axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi maxsus metodikani sinovdan o'tkazish.

4. Mazkur maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtirish, matematik-statistik metod yordamida tahlildan o'tkazish.

Sinfdan tashqari ishlarda Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida dostonchilik san'ati orqali axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi uslublar asosida o'tkazildi: so'rovnoma uslubi;

suhat uslubi; pedagogik kuzatuv uslubi; interfaol uslublar; pedagogik tajriba uslubi; matematik-statistika uslubi.

Tashkil etilgan tajriba sinov ishlari jarayonida o‘quvchilar ishtirokidagi tadbirlarning mazmuni, mohiyati hamda yo‘nalishidan kelib chiqqan holda ularga mos uslublardan foydalanishga harakat qilindi. Bahs munozara, erkin muloqotga asoslangan, o‘quvchilarni fikrlashga undovchi tadbirlar samarali yakunlandi. Tadbirlarni o‘tkazishda noan’anaviy (interfaol) metodlarning qo‘llanilishi tajriba-sinov jarayoni ishtirokchisi bo‘lgan o‘quvchilar faoliyatini yanada faollashtirdi. Ilmiy-tadqiqot muammosi doirasida tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Tajriba-sinov ishlarining o‘tkazilishini ta’minlovchi tashkiliy tayyorgarlik bosqichi.

2. Tajriba-sinov ishlari uchun obyekt sifatida belgilangan o‘quvchilar bilan ishlash, maxsus metodikani dastlabki sinovdan o‘tkazish bosqichi.

3. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va tahlil etish bosqichi. Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida o‘quvchilarda o‘zbek dostonchilik san’ati orqali axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining boshida o‘quvchilarning xalq dostonlarida ilgari surilgan milliy-axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajalari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

Tajriba boshida Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilarida o‘zbek dostonchilik san’ati orqali axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasi to‘g‘risida ma’lumot

1-jadval:

№	O‘quvchilarning dostonchilik san’atidagi axloqiy fazilatlarning tarkibiy qismlariga doir nazariy	O‘quvchilarning umumiy soni	
		Nazorat guruhi $n_1=59$	Tajriba guruhi $n_2=60$

	bilim va ko'nikmalardan xabardorlik	Ijobiy	Salbiy	Ijobiy	Salbiy
1	Mehnatsevarlik	21	38	22	38
2	Vatanparvarlik	18	41	21	39
3	Ota-ona, kattalarga hurmat	28	41	20	40
4	Jasurlik	21	38	23	37
5	Mardlik, tashabbuskorlik	18	41	19	41
6	Poklik	20	39	22	38
7	Rostgo'ylik	27	32	25	35
8	Dinga e'tiqod	18	41	20	40
9	Milliy qadriyatlarga muhabbat	22	37	22	38
10	Ajdodlar va ular merosini chuqur hurmat qilish	22	37	24	36
11	Fidoiylik	19	40	20	40
12	Insonparvarlik	21	38	24	36
13	Adolatparvarlik	21	38	21	39

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarining o'zbek dostonlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir axloqiy bilimlarning xabardorlik va shakllanganlik darajasini yuqoridagi jadvalda raqamlar orqali namoyon bo'lishi, uning past darajada ekanligini ko'rsatdi.

3.2. Pedagogik eksperiment yakunidagi tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga dostonchilik san'ati orqali tarbiyaviy ta'sir etib, ularda milliy axloqiy fazilatlarni shakllantirishning mazmuni, shakl va uslublari maktabdan tashqari ta'limda amal qilinayotgan tarbiya tizimining bir qismidir. Mazkur tizimning samaradorligi pedagogik tadqiqotlar natijasida to'la sinovdan o'tkaziladi. O'zbek dostonchilik san'ati milliy pedagogikamizda ma'naviy tarbiya vositasi sifatida uning xazinasidagi asarlaridan saralab olingan namunalarda o'z isbotini topdi. O'quvchilarda hofiz ijodidagi axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda biz ana shu maqsadga erishish uchun mumkin qadar ko'proq tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan asarlarini tanlab oldik.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda dostonchilik san'atidagi estetik, badiiy tarbiya vositalari, asarlarida ilgari surilgan milliy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga rioya etish zarur: dostonchilik san'atidagi ma'naviy va estetik tarbiya bo'yicha tarixiy-nazariy bilim va amaliy tajribalarini sinfdan tashqari ishlar jarayonida foydalanish; Xalq dostonlaridagi milliy an'analarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish, tanlab olish jarayonida doston nomalaridagi axloqiy mazmunini alohida e'tiborga olish, asarni badiiy idrok qilish; ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish jarayonida qatnashish, turli doston kechalari, baxshiyona tadbirlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda shahar, viloyat, Respublika miqyosidagi ko'riklar, milliy musiqa va turli bayramlar, Mustaqillik kuni, turli sanalarga bag'ishlangan tadbirlarda milliy urf-odatlar, an'analarda keng foydalanish; sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarning estetik did, qiziqishlarini o'rganish; dars mashg'ulotlarida dostonlarning milliy tarbiyaga ijobiy ta'sir etuvchi psixologik sharoit vujudga keltirish, har bir tadbirni go'zallik qoidalari asosida rivojlantirish, puxta, chuqur tayyorgarlik bilan o'tkazish; o'quvchilar ishtirok etayotgan tadbirlarda, shoir va yozuvchilar, madaniyat xodimlari, olimlar ishtirokidagi tadbirlarda iloji boricha dostonlardan

parchalar namoyish qilishga ko‘proq erishish va xokazo. Pedagogik tajriba ishlari uchun maxsus tayyorlangan metodikani amaliyotda sinash natijasida o‘quvchilar tomonidan dostonchilik san’ati orqali milliy-axloqiy fazilatlar mohiyatini anglash sezilarli darajada o‘zgardi. Mazkur o‘zgarish quyidagi jadvalda o‘z aksini topdi.

Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilarida o‘zbek dostonchilik san’ati orqali axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasi (tajriba oxirida) haqida ma’lumot.

2-jadval:

№	O‘quvchilarning dostonchilik san’atidagi axloqiy fazilatlarining tarkibiy qismlariga doir nazariy bilim va ko‘nikmalardan xabardorlik	O‘quvchilarning umumiy soni			
		Nazorat guruhi $n_1=59$		Tajriba guruhi $n_2=60$	
		Ijobiy	Salbiy	Ijobiy	Salbiy
1	Mehnatsevarlik	21	38	46	14
2	Vatanparvarlik	22	37	49	11
3	Ota-ona, kattalarga hurmat	19	40	47	13
4	Jasurlik	21	38	51	9
5	Mardlik, tashabbuskorlik	19	40	45	15
6	Poklik	21	38	47	13
7	Rostgo‘ylik	28	31	52	8
8	Dinga e‘tiqod	18	41	49	11
9	Milliy qadriyatlarga muhabbat	22	37	46	14
10	Ajdodlar va ular merosini chuqur hurmat qilish	23	36	48	12
11	Fidoiylik	20	39	43	17
12	Insonparvarlik	22	37	46	14
13	Adolatparvarlik	21	38	51	9

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida dostonlardagi milliy axloqiy sifatlar va ko'nikma, odatlarni, madaniyatni shakllantirish mazmunining to'liq o'rganilish darajasini aniqlash maqsadida ushbu g'oya mohiyatini o'zida batafsil mujassam etgan test savolnomasini ishlab chiqdik .

Ushbu nazariy savolnoma va amaliy topshiriqlar tajriba-sinov ishiarining boshi va oxirida o'quvchilar e'tiboriga havola etildi. Tajriba-sinov ishlari boshi va yakunida tajriba hamda nazorat guruhi o'quvchilari tomonidan qayd etilgan ko'rsatgichlar taqqoslandi hamda matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi. Mazkur holat biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotda sinovdan o'tkazilgan uslubiyatning samaradorligini tasdiqladi. Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarining mavzu doirasidagi bilimini baholashda dostonlardagi milliy-axloqiy fazilatlar tushunchalarining shakllanishini ko'rsatish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan nazorat ishlari natijalarini hisoblashda qulay bo'lishi uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 ballik reyting tizimini qulay deb topdik. Bu jadvalda ifodalangan.

3-jadval:

Baho	“2”	“3”			“4”			“5”		
Ballar	51 – 54	55- 60	61- 65	66- 70	71- 75	76- 80	81- 85	86- 90	91- 95	96- 100
Tajriba I	3	2	3	4	7	9	10	10	9	3
Nazorat I	9	9	10	9	5	7	4	4	2	0

Ushbu jadvalni Bolalar musiqa va san'at maktabining — “Baxshichilik san’ati” yo‘nalishining DTS va namunaviy fan dasturida keltirilgan, belgilangan ilmiy-nazariy bilim, ko‘nikma darajalar (asosida) bo‘yicha quyidagicha baholarga aylantirdik:

III daraja – reproduktiv daraja bo‘lib, DTS da belgilab berilgan bilimlarni o‘zlashtirishning minimal darajasiga mos keladi – 3 baho.

II daraja – bu ham reproduktiv darajada qo‘llaniladigan DTS dagi bilimlar darajasi bo‘lib, bu darajada egallangan bilimlar «4» bilan baholandi.

I daraja – bilimlarni ijodiy qo‘llash darajasi bo‘lib – «5» bilan baholandi.

1. Reyting ko‘rsatgichi – 100-86% - «5»
2. Reyting ko‘rsatgichi – 85-71% - «4»
3. Reyting ko‘rsatgichi – 70-55% - «3»
4. Reyting ko‘rsatgichi – 54% - «2».

Tajriba-sinov ishlari jarayonida 119 o‘quvchilardan olingan natijalar tahlil etilib, matematik-statistika metodi orqali o‘quvchilar tarbiyasida o‘zbek dostonchilik san’ati orqali axloqiy sifatlarining shakllanganlik darajasi aniqlandi. Yuqoridagi 3-jadvalga asoslangan holda 4-jadvalni to‘ldiramiz.

4-jadval:

1 – tajriba guruhi					2 – nazorat guruhi				
X_i	“2”	“3”	“4”	“5”	X_j	“2”	“3”	“4”	“5”
N_i	3	9	26	22	N_j	9	28	16	6

Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$x = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^II n_i x_i = \frac{3 * 2 + 9 * 3 + 26 * 4 + 22 * 5}{60} = \frac{247}{60} = 4,11 \approx 4,1$$

$$y = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^H n_j x_j = \frac{9 * 2 + 28 * 3 + 16 * 4 + 6 * 5}{59} = \frac{196}{59} = 3,32 \approx 3,3$$

Demak, aytish mumkinki, tajriba guruhidagi oʻrtacha baho nazorat guruhidagi oʻrtacha bahodan yuqori ekan. Shunday qilib, tajriba sinov ishlari jarayonida tajriba guruhi oʻquvchilarining tarbiyasida oʻzbek dostonchilik sanʼati orqali milliy-axloqiy sifatlarning shakllanish darajasi va ijro etish malakasining sezilarli darajada, yaʼni **4,1-3,3=0,8** ga ortganligi maʼlum boʻldi.

UMUMIY XULOSALAR

Xulosa qilib aytsak, yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish zarurati tug'ilmoqda. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limdan Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi.

Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir. So'z san'atining boshlang'ich namunasi bu folklor bo'lib, u behad qadimiy so'z san'ati sanaladi, unda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kurash va mag'lubiyatlari ifodalangan. Folklorda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra o'tmishga daxldor, undagi u yoki bu jamiyat tabiatida, til xususiyatlarida buning izlarini ko'rish mumkin. «Alpomish» dostonida tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini yo'qotmagan xalqimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan» Alpomish dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakillanib rivojanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni yingib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

Xalq dostonlari bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi. Shunday ekan, Bolalar musiqa va san'at maktabi Baxshichilik va dostonchilik

sinfi darslarining samarali bo'lishiga erishish uchun quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

1. O'quvchi yoshlarga o'zbek dostonchilik san'atini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyatini nazariy jihatdan asoslandi.

2. O'quvchi-yoshlarga dostonchilik san'atini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etildi.

3. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'quvchilarga Baxshichilik va dostonchilik sinfi mutaxassislik darslarida o'zbek dostonlarini o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy ishiarning ta'sirchan shakllari, usul va vositalarini ishiab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: O‘zbekiston 2017.
2. S. Ro‘zimboyev “Xorazm dostonlari” Toshkent “Fan” nashriyoti 1985
3. B. Matyoqubov “Doston navolari” Toshkent 2009
4. S. Ro‘zimboyev “Xorazm dostonlari Go‘ro‘g‘li” Xorazm nashriyoti Urganch 2004
5. S. Ro‘zimboyev “Oshiqnoma” I, II, III, IV, V kitoblar Urganch 2006
6. Mash‘al radiosidagi “Mumtoz navolar” eshittirishlari
7. T. Qilichev “Xorazm xalq teatri” Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 1988
8. Avazxon. Xorazm dostoni. Aytuvchi Q.Abdullayev (Bola bahshi). Yozib olib, nashrga tayyorlovchi J.Qobulniyozov – Toshkent: Fan, 1970
9. Ovozing sani maqolasi “Yosh kuch” jurnalining 2017-yil 3–4 soni 50-55 b.
10. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik eposi / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar Hodi Zarifov va To‘ra Mirzaev. – Toshkent: Sharq, 1998
11. Kuntug‘mish. Doston / Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi H.Zarifov. YOzib oluvchi I.Ernazar o‘g‘li. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1975.
12. Murodxon. Doston. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li / Nashrga tayyorlovchilar: M. Afzalov, H.Rasul // Murodxon. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.

13. Oshiq Mahmud. Xorazm dostoni Aytuvchi: Mahmudjon Yusupov / Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi: J.Qobulniyozov. – Toshkent: Fan, 1970.
14. Rustamxon. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti. – M.: Nauka, 1972. – 331s.
15. Yusuf va Ahmad / Nashrga tayyorlovchilar: S.Ro‘zimboev, A.Ahmedov // Oshiqnoma. Xorazm dostonlari. – Urganch: Xorazm, 2008. Uchinchi kitob.
16. Yakka Ahmad. Doston. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li // Bulbul taronalari. –Toshkent: Fan, 1971. Birinchi jild.
17. M.J.Mutalipova “Xalq pedagogikasi” Toshkent, “Fan va texnologiya” 2015
18. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvchi, 1990.
19. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.
20. Hodi Zarif. Fozil shoir - mashhur dostonchi / O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 3-kitob: Fozil shoir. - T.: Fan, 1973.
21. O‘zbek folklorining epik janrlari / O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 7-kitob. - T.: Fan, 1981.
22. Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. - T.: Fan, 1969.

Urganch davlat universiteti “Musiqqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi
2-kurs magistranti Djumaniyazov Umrbek Maxsudovichning “O‘zbek
dostonchilik san’atining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni”
mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Bugungi kunda mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish to‘g‘risida davlatimiz rahbarining bir qancha qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlar ijrosini ta’minlash maqsadida bir qancha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. “Musiqqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi 2-kurs magistranti Djumaniyazov Umrbek Maxsudovichning “O‘zbek dostonchilik san’atining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni” mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasida xalq dostonlari asosida yoshlar ahloqiga, ma’naviyatiga ta’sir qilish xususida bir qancha ma’lumotlar berib o‘tgan.

Dissertatsiya kirish, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uch bob, sakkiz paragraf, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Birinchi bobda dostonchilik janrining vujudga kelishi, rivojlanish jarayonlari va yurtimiz hududidagi dostonchilik maktablari, doston nomlari asosida bastalangan kuy-qo‘shiqlar to‘g‘risida bir qancha nazariy ma’lumotlar berib o‘tgan.

Ikkinchi bobda dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati, Xorazm dostonlarining yurtimiz hududidagi boshqa dostonchilik maktablaridan farqi va umumiyliklari to‘g‘risida ma’lumotlar, o‘z shaxsiy fikrlarini bayon etgan.

Uchinchi bobda pedagogik eksperiment yakunidagi tajriba – sinov ishlarining natijalari va ularning tahliliga to‘xtalib o‘tilgan.

Urganch davlat universiteti

“Musiqqa ta’limi” kafedrasida professori

S. Xudayberganov



**Urganch Davlat Universiteti 5A111101- “Musika ta’limi va san’at”
mutaxassisligi 2 kurs magistranti Djumaniyazov Umrbek Maxsudovichning
“O‘zbek dostonchilik san’atining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Davlatimiz rahbarining milliy madaniyatimiz va san’atimiz istiqboli yo‘lida qabul qilayotgan farmon va qarorlari madaniyatimiz tarixi, uning ravnaqida yangi sahifalarni ochmoqda. xususan, 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” gi qarorlari barcha san’at ixlosmandlarini birdek xursand qildi.

Urganch Davlat Universiteti “Musika ta’limi va san’at” mutaxassisligi 2-kurs magistranti Djumaniyazov Umrbek Maxsudovichning “O‘zbek dostonchilik san’atining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ham aynan mazkur masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Magistrant talaba ushbu ilmiy ishda o‘zbek dostonchilik san’atining vujudga kelishi, doston, baxshi atamalarining kelib chiqishi va mavzu jihatdan turlari, O‘zbekiston hududidagi dostonchilik maktablari va yo‘nalishlari hamda ularning yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni xususida bir qancha ma’lumotlar berib o‘tgan.

Dostonchilik san’ati bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va umulashtirish, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati xususida o‘zining xulosalarini berib o‘tgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 5A111101 - “Musika ta’limi va san’at” mutaxassisligining 2-kurs magistranti Djumaniyazov Umrbek Maxsudovichning “O‘zbek dostonchilik san’atining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni” mavzusida yozgan dissertatsiyasini ijobiy baholayman va himoyaga tavsiya qilaman.

Urganch ixtisoslashtirilgan san’at maktabi

“Musika-nazariya fanlar” o‘qituvchisi,

ovoz rejissyor assistenti va umumta’lim

fanlar bo‘limi boshlig‘i:



D. Raximov